

## YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 74 (1135), 2024-yil 18-aprel, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz



## XUSUSIYLASHTIRISH DASTURI BO'YICHA AXBOROT BERILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga 2024-yilgi xususiylashtirish dasturi va uning ijrosini samarali tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida axborot berildi.

Shu yil 16-yanvar kuni iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida Vazirlar Mahkamasiga yangi xususiylashtirish dasturini tayyorlash vazifasi qo'yilgan edi. Shunga asosan, davlat ishtirokidagi korxonalarining ulushlari va ko'chmas mulk obyektlari samaradorlik jihatidan tahlil qilinib, yangi dastur ishlab chiqildi.

Xususan, iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish maqsadida ommaviy savdolar chiqariladigan 250 ga yaqin ulushlar ro'yxati, davlat ishtirokidagi korxonalarining qariyb mingta ko'chmas mulk obyekti ro'yxati, mahalliy fond bozorida aksiyalarning ommaviy taklifi o'tkaziladigan 12 ta korxonalar ro'yxati shakllantirildi.

Ilgari savdoga qo'yilgan ayrim inshootlar sotilishida ham muammolar bor. Buni jadallashtirish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish maqsadida qator yengilliklar belgilanmoqda.

Masalan, davlat aktivlari 3 oyda sotilmaganda (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno) ularning boshlang'ich bahosi 10 foizgacha bosqichma-bosqich pasaytiriladi. 2024-

yil 1-yanvargacha aukcion orqali ijaraga olganiga kamida 5 yil bo'lgan va majburiyatlarini bajargan tadbirkorlarga davlat mulkini baholangan qiymatda sotib olish taklif etiladi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari 3 oyda sotilmaganda (Toshkent shahri va viloyat markazlari bundan mustasno) boshlang'ich qiymati 30 foizgacha, 6 oyda sotilmaganda 10 foizgacha pasaytiriladi. To'lovlarining 15 foizini 3 oy muddatda, qolgan qismini 10 yilgacha muddatda bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati yaratiladi.

Xususiylashtirish dasturlariga kiritilgan ko'chmas mulklarning kadastr hujjatlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun to'lovlarni Xususiylashtirish jamg'armasi hisobidan amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Shuningdek, yangi dastur doirasida, tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyati uchun hamda xalqaro avtomobil yo'llari bo'yida savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun savdolariga qaytariladigan yer uchastkalarining ro'yxatlari shakllantirildi hamda ularni savdoga chiqarish soddalashtirildi.

Bu borada ham yangi tartiblar belgilash taklif etilmoqda. Jumladan, master-reja asosida xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo'llari bo'yida joylashgan yer uchastkalari zamonaviy servis va savdo-maishiy obyektlarni qurish uchun auktsionga chiqariladi. Sotilgan yer uchastkalari xaridorga cheklovlarisiz rasmiylashtirib beriladi.

Yig'ilishda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, ularni jadallashtirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi.

Agar sohaga xizmat ko'rsatuvchi davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiylashtirish chora-tadbirlari ham ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari bu jarayonlarni jadallashtirish, xususiylashtirish bino-inshootlar negizida tadbirkorlikni rivojlantirib, ko'proq ish o'rinarli ochish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

O'z sohasida xususiy sektor ulushini mutasil oshirib borish, samarasiz foydalanilayotgan va bo'sh turgan aktivlarni sotish mahalliy hokimlik va tarmoq rahbarlarining asosiy vazifalaridan bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tildi.

O'zA

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN TOJKISTONGA BORADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-19-aprel kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Dushanbe shahrida oliy darajadagi muzokaralar, qator ikki tomonlama uchrashuv va qo'shma tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Kun tartibidan O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'sh-nichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik

munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o'rin olgan.

Savdo, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport va boshqa tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini ilgari surishga alohida e'tibor qaratiladi, hududlar o'rtasidagi aloqalarni, madaniy-gumanitar va turizm almashinuvlarini kengaytirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston va Tojikiston yetakchilari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga mo'lik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo'yicha ikki tomonlama hujjatlar salmoqli to'plamini qabul qilish ko'zda tutilmoqda.

O'zA

## Xalqaro hamkorlik

## O'ZBEKISTON - TOJKISTON: YAXSHI QO'SHNICHILIK, O'ZARO ISHONCH TAMOVILLARI ASOSIDA KENG KO'LAMLI SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev Prezident Emomali Rahmonning taklifiga binoan 18-19-aprel kunlari davlat tashrifi bilan Tojikistonda bo'ladi.

Xalqlari tarixiy va madaniy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan O'zbekiston va Tojikiston ikki tomonlama munosabatlarni strategik sheriklik hamda ittifoqchilik darajasiga olib chiqdi. 2022-yil 3-iyun kuni Tojikiston Prezidentining O'zbekistonga rasmiy tashrifi chog'ida mamlakatlarimiz o'rtasida Abadiy do'stlik va ittifoqchilikni mustahkam-

lash to'g'risidagi tarixiy deklaratsiya imzolandi.

O'zaro manfaatli samarali hamkorlikni rivojlantirishda davlatlarimiz rahbarlari o'rtasidagi ishonchli va yaqin do'stona munosabatlar, ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar doirasidagi konstruktiv siyosiy muloqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev o'tgan olti yil ichida Tojikistonga ikki marta, ya'ni 2018-yil martda davlat va 2021-yil iyunda rasmiy tashrif bilan bordi. O'z navbatida, Tojikiston yetakchisi ham 2018 va 2022-yillarda davlat va rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan. Ushbu tashriflar mamlakatlarimiz xalqlari o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik, ili va do'stona munosabatlarni mustahkamlashga kuchli turtki berdi.

Davomi 2-beta

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

## QARORI

## BINO VA INSHOOTLARNING ZILZILABARDOSHLIGINI OSHIRISH HAMDA SEYSMIK XAVFNI MONITORING QILISH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

So'nggi yillarda dunyoda talofli zilzilalar soni ortib, ular aholi hayoti va mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalariga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi sababli seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida doimiy takomillashtirib borish doirasida mavjud va qurilayotgan bino-inshootlarning seysmik mustahkamligini ta'minlash, zilzilani prognozlash, monitoring qilish hamda unga tayyorgarlik ko'rishda davlat organlari va tashkilotlarining o'zaro aloqalarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasida zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish, bino va inshootlarning zilzilabardoshligini yanada oshirish, kuchli zilzilalarni prognoz qilishning yangi usullarini ishlab chiqish va ularga tayyorgarlik ko'rishning zamonaviy tizimini yaratish maqsadida:

1. 2024-yil 1-iyundan boshlab:

MSK-64 shkalasi bo'yicha 8 va undan yuqori ballik seysmik faol zonalarda yangi qurilish rejalashtirilayotgan 5 qavatdan yuqori tibbiyot obyektlari hamda 9 qavatdan yuqori binolarni aktiv seysmik himoyalash qurilmalari, shu jumladan, seysmoizolyatsiya va dempfer uskunalari bilan loyihalash amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

aktiv seysmik himoyalash qurilmalarini o'rnatish qurilish ishlari mas'ul bo'lgan buyurtmachi tashkilotlar tomonidan moliyalashtirilishi belgilansin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun mas'ullar etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

2. 2024-yil 1-iyundan boshlab:

yangi qurilish rejalashtirilayotgan xavfli o'limi III-IV toifa bo'lgan obyektlarga bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunasi o'rnatish majburiy etib belgilansin;

bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring

qilish uskunalaridan olinadigan ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish orqali monitoring qilish tartibi joriy etilsin.

Mazkur band doirasida bino va inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalarini majburiy o'rnatilishini nazorat qilish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov), ulardan olinadigan ma'lumotlarning yagona bazasini yuritish va monitoring qilish uchun Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov) mas'ul etib belgilansin.

3. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2024-yil 1-iyundan boshlab:

MSK-64 shkalasi bo'yicha 5 va undan yuqori ballik yer silkinishi sodir bo'lganda bino va inshootlarning holati bo'yicha yuk ko'taruvchi konstruksiyalarini avtomatik monitoring qilish uskunalaridan olingan ma'lumotlar tezkor ravishda tahlil qilinadi;

bino va inshootlarda aniqlangan xavf bo'yicha zudlik bilan O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash tadbirlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika kengashiga (keyingi o'rinlarda — Respublika kengashi) axborot kiritiladi;

Respublika kengashi uch kun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda zilzila natijasida aniqlangan bino va inshootlarning zaif nuqtalarini mustahkamlash va xavfni bartaraf etish choralari belgilab, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Mazkur bandeda nazarda tutilgan tartibning yo'lga qo'yilishi va bir maromda ishlashini ta'minlash uchun mas'ul etib Respublika kengashi (A.Aripov) belgilansin.

4. Bino va inshootlar hududlarining seysmik faolligiga muvofiq ravishda qurilishini tashkil etish maqsadida:

2024-yil 1-iyulga qadar respublikaning barcha tuman va shaharlari hududlari kesimida mintaqaviy akselerogrammlar raqamlashtirilsin hamda ularning onlayn bazalari shakllantirilsin;

2024-yil 1-avgustdan boshlab xavfli o'limi III-IV toifa bo'lgan obyektlarni hududning zilzilalar kuchini ko'rsatib beruvchi mintaqaviy akselerogrammlar bazalaridan kelib chiqib loyihalash va qurish tartibi joriy etilsin.

Mazkur band doirasida mintaqaviy akselerogrammlarni raqamlashtirish uchun mas'ul etib Fanlar akademiyasi (B.Yuldashev) va Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldashev), bino va inshootlarni mintaqaviy akselerogrammlarga muvofiq loyihalash va qurish ishlari nazorat qilish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (D.Adilov) mas'ul etib belgilansin.

5. 2024-yil 1-iyundan boshlab yangi qurilish rejalashtirilayotgan xavfli o'limi III-IV toifa bo'lgan obyektlarda gaz va elektr tarmoqlarini kuchli zilzila paytida avtomatik bloklash tizimi bilan loyihalash tartibi joriy etilsin.

Bunda, seysmik faol zonalarda yangi qurilish rejalashtirilayotgan xavfli o'limi III-IV toifa bo'lgan obyektlarning loyihalash va qurish ishlari nazorat qilish uchun Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (B.Zakirov) belgilansin.

6. Sodir bo'lgan zilzilalar va fasllardagi namgarchiliklar ta'siridan cho'kkan hamda deformatsiyalar paydo bo'lgan bino va inshootlarni mustahkamlash ishlari ilg'or, zamonaviy va xavfsiz yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

2024-yil 1-iyulga qadar texnik holati qoniqsiz deb topilgan mavjud bino va inshootlarni "kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish" usubi orqali qayta tiklash ishlari eksperiment tariqasida amalga oshirilsin;

Davomi 2-beta

## QUR'ONI KARIMNING NOYOB NUSXASI ZOMINDAGI MASJIDGA TOPSHIRILDI



Ma'lumki, muqaddas yurtimiz zaminida asrlar davomida ko'plab mo'tabar tarixiy, ilmiy va diniy manbalar saqlanib keladi. Islom olamida "Katta Langar Qur'oni" nomi bilan mashhur bo'lgan, Qur'oni karimning eng mo'tabar nusxalaridan biri hisoblangan noyob qadimiy qo'lyozma shular jumlasidandir. Uning sahifalari, taqdir taqozosiga ko'ra, Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida, shuningdek, Toshkent va Buxoro shaharlarida saqlanmoqda.

Davomi 2-beta

## Islohot odimlari

## HAR BIR BOSQICH QO'SHIMCHA ISH O'RNI DEGANI O'zbekiston to'qimachilik sanoati eng ko'p aholi bandligini ta'minlamoqda

Bir oyda hech bo'lmaganda bir marotaba to'qimachilik mahsuloti — kiyim-kechak, sochiq yoki oddiy paypoq xarid qilamiz. Bu ehtiyoj oiladagi a'zolar soniga qarab oshib boraveradi. Ayniqsa, hozirgi davrda turmush farovonligi oshgani sari bunday xaridlar soni, ko'lami ham kengayib bormoqda. Bir vaqtlar ko'p kiyim-kechak xarid qilish "shopogolik"larga xos hisoblangan bo'lsa, hozir bu oddiy hol, hatto zaruratga aylanib qoldi.



Davomi 4-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining  
QARORI

## BINO VA INSHOOTLARNING ZILZILABARDOSHILIGINI OSHIRISH HAMDA SEYSMIK XAVFNI MONITORING QILISH FAOLİYATINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

## Boshlanishi 1-betda

2024-yil 1-oktabrga qadar eksperiment natijalari asosida bino va inshootlar poydevorini mustahkamlash va deformatsiyalarini bartaraf etishda yer ostidan **“kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish”** uslubini amaliyotga to'liq joriy etish choralarini ko'rilin.

Mazkur band doirasida **“kompensatsion inyeksiya texnologiyasi orqali mustahkamlash va deformatsiyani oldingi holatiga qaytarish”** uslubini amaliyotga joriy etish uchun mas'ul etib Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov), eksperiment uchun obyektlarni taqdim etishga mas'ul etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya (K.To'laganov) belgilansin.

7. Qurilishda davlat nazorati sifatini oshirish maqsadida **2024-yil 1-iyuldan boshlab** yangi qurilayotgan obyektlarning xavf-xatar toifasini hamda qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida **hududiy inspektorlarning ish tajribasini** inobatga olgan holda **davlat nazoratini amalga oshirish** ishlari tashkil etilsin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash, qurilishda davlat nazoratini amalga oshirishda uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish hududiy inspeksiyalari shtat birliklari sonini qayta ko'rib chiqish uchun mas'ul etib Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya (K.To'laganov) belgilansin.

8. Quyidagilar:  
**Seysmik xavfsizlikni ta'minlash hamda bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish tizimini takomillashtirish**

bo'yicha “yo'l xaritasi” (keyingi o'rinlarda — “Yo'l xaritasi”) 1-ilovaga muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar hamda Toshkent shahri bo'yicha **seysmik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan hududiy chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalari** (keyingi o'rinlarda — hududiy chora-tadbirlar rejalari) 2 — 15-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

9. “Yo'l xaritasi” va hududiy chora-tadbirlar rejalari belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va samarali amalga oshirilishini ta'minlash yuzasidan:

“Yo'l xaritasi” bo'yicha — tegishli davlat organlari va tashkilotlarining **birinchi rahbarlariga**;

hududiy chora-tadbirlar rejalari bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga **shaxsiy mas'uliyat yuklatilsin.**

Respublika kengashi davlat organlari va tashkilotlari tomonidan “Yo'l xaritasi” va hududiy chora-tadbirlar rejalari belgilangan vazifalarning **sifatini va o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish uchun mas'ul etib belgilansin.**

10. Respublika kengashi (A.Aripov), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (B.Tulaganov) **2024-yil 1-avgustga qadar** Respublika kengashi a'zolari hamda sohaga mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislarini **seysmik xavfsizlikni ta'minlash va qurilish nazoratini sohasi bo'yicha rivojlangan xorijiy davlatlarga** qisqa muddatli xizmat safariga yuborishni tashkil etsin.

Respublika kengashi a'zolari hamda sohaga mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislarini xorijga yuborish bilan bog'liq xarajatlar (transport, mehmonxona, kunlik va boshqalar) **Seysmologiya, inshootlarning seysmik**

mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalardan qoplanishi belgilansin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari Favqulodda vaziyatlar vazirligi bilan birgalikda **2024-yil 1-mayga qadar hududlarning zilzilaga tayyorgarlik ko'rish rejalari**ni tasdiqlasin va qonunchilikka muvofiq ushbu reja asosida **aholini zilzilaga tayyorgarlik**ni tashkil etib borsin.

12. Hududlarda kuchli zilzilalarga tayyorgarlik ko'rish ishlarini aniq ilmiy prognozlariga asosan tashkil etish maqsadida **2024-yil 1-maydan boshlab**:

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring respublika markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) tomonidan **zilzila xavfi va prognoziga oid xulosalarni har oyda** Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilsin;

xulosalarda **kuchli zilzila xavfi haqida ogohlantirish bo'lganda**, tegishli hududlar rahbarlari tomonidan **hududlarning zilzilaga tayyorgarlik ko'rish rejalari**ga muvofiq ishlar tashkil etilsin.

Mazkur bandning to'liq va so'zsiz ijrosini ta'minlash uchun mas'ul etib Favqulodda vaziyatlar vazirligi Seysmoprognostik monitoring respublika markazi (Q.Qo'chqorov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari belgilansin.

13. **2024-yil 1-iyundan boshlab** respublika hududida bo'lib o'tgan zilzilalar monitoring, ularning ilmiy tahlili va faol tektonik yer yoriqlarining harakatlari orqali yaqin

kelajakda kutilayotgan kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Bunda: seysmoprognostik monitoring amalga oshirilishini tashkil etish, bo'lib o'tgan zilzilalarning raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va qayta ishlash — Markaz tomonidan;

zilzilalarning vujudga kelish mexanizmi, darajasi va zilzila darakchilarining turli geodinamik jarayonlarda namoyon bo'lishi, shuningdek, yaqin kelajakda kutilayotgan **kuchli zilzila xavfi bor hududlarni aniqlash** — Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilishi belgilansin.

**Kuchli zilzila xavfi bor hududlar aniqlanganda**, bu haqidagi ma'lumotlar **zudlik bilan Respublika kengashiga** kiritib borilsin.

14. **2024-yil 1-maydan boshlab** har bir hududda **kuchli zilzilada aholini qutqarish ishlariga jalb etish uchun volontyorlik guruhlarini shakllantirish** amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

Bunda, volontyorlik guruhlariga jalb qilingan fuqarolarga **har chorakda** qonunchilikka muvofiq **kuchli zilzilada** harakatlanish qoidalarini va tartibi o'rgatilib, bu yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalari oshirib borilsin.

Mazkur bandda nazarda tutilgan **amaliyotni to'liq joriy etish, volontyorlik guruhlarini faoliyatini doimiy rag'batlantirib borish** uchun mas'ul etib Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldoshev) va Yoshlar ishlari agentligi (A.Sa'dullayev) belgilansin.

15. Fanlar akademiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining Fanlar akademiyasi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan **Zilzila muhandisligi olimlari as-**

sotsiatsiyasini (keyingi o'rinlarda — Assotsiatsiya) tashkil etish to'g'risidagi takliflarga rozilik berilsin.

**Assotsiatsiyaga** 16-ilovaga muvofiq **assosiy vazifalar yuklatilsin.**

16. Quyidagilar:

Assotsiatsiya vazirlik va idoralarning sohaga mas'ul mutaxassislari va olimlar hamda **xorijiy mutaxassislardan iborat tarkibda** Fanlar akademiyasi tomonidan **Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda shakllantirilishi va har uch yilda yangilab borilishi** belgilansin;

Assotsiatsiya tomonidan **har chorakda** tayyorlanadigan takliflar Respublika kengashi tomonidan **har yarim yilda** muhokamadan o'tkazilishi va asoslangan takliflar **zudlik bilan amalga oshirilishi** ta'minlansin.

17. Seysmik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar **mohiyatini aholi va keng jamoatchilikka tushunarli tarzda yetkazish** ishlarini tashkil etish maqsadida:

a) O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.Djurabayev):

Favqulodda vaziyatlar vazirligi (A.Qo'ldoshev) bilan hamkorlikda **fuqarolarning zilzila vaqtida to'g'ri harakatlanishiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar, lavhalar, roliklar va e-shittirishlar** tayyorlanishini;

ishlab chiqilgan media mahsulotlar Milliy teleradiokompaniyaning **barcha tele- va radiokanalida tizimli ravishda efga uzatilishini** ta'minlansin;

O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,

2024-yil 17-aprel

## Xalqaro hamkorlik

## O'ZBEKISTON – TOJIKISTON: YAXSHI QO'SHNIÇILIK, O'ZARO ISHONÇ TAMOVILLARI ASOSIDA KENG KO'LAMLI SHERIKLIK YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

## Boshlanishi 1-betda

Shu bilan birga, ikki davlat rahbarlari ko'p tomonlama muhim forumlar — Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti sammitlari, “Markaziy Osiyo+” formatlari va boshqa platformalar doirasida ham muntazam uchrashib turadi.

Bu haqda so'z yuritganda, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlari kabi samarali hamkorlik mexanizmining ahamiyatiga alohida e'tibor qararish joiz. 2017-yilda faoliyatini yo'lga qo'yilgan va an'anaviy o'tkazib kelinayotgan ushbu mexanizm qisqa muddatda uzoq yillar davomida to'planib qolgan, hamkorlikning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qilgan muammoli masalalarni hal etishga hamda mintaqa salohiyatini to'liq ochishga imkon berdi. Umumiy maqsadlarning mustahkamlanishi bilan Markaziy Osiyo xalqaro maydoniga yagona mintaqa sifatida qabul qilindi. Pirovardida jahon hamjamiyatining Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikka qiziqishi tobora ortib bormoqda.

2023-yil 14-sentabr kuni Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi maslahat uchrashuvida Prezident Emomali Rahmon yubiley sammit mintaqa davlatlarining o'zaro hamkorlikni har tomonlama mustahkamlash borasidagi qat'iy siyosiy irodasining yana bir tasdiqi bo'lganini ta'kidladi.

Shu tariqa, O'zbekiston va Tojikiston mintaqaning boy iqtisodiy va umuminsoniy salohiyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan dolzarb muammolarni hal etish, shuningdek, yaxshi qo'shniçilik, o'zaro ishonç, teng huquqlilik tamoyillari, manfaatlarni hurmat qilish va o'zaro hisobga olish asosida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishlarini izchil namoyon etib kelmoqda. Har ikki davlat xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birining nomzodi va tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlaydi. Global kun tartibidagi ahamiyatga molik dolzarb masalalar bo'yicha ham tomonlarning pozitsiyalari o'xshash yoki bir-biriga yaqindir.

Parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish O'zbekiston — Tojikiston hamkorligining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlik do'stlik va yaxshi qo'shniçilik munosabatlari chuqurlashtirish, ikki tomonlama kelishuvlar ijrosi hamda samarali nazoratini amalga oshirishning muhim mexanizmi bo'lib, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashishga ko'mak beradi.

Ikki tomonlama hamkorlik yuqori darajada ham faollashdi, idoralararo tashriflar, tajriba almashish va

qo'shma tadbirlarning yuqori sur'ati buning yorqin ifodasidir. Tashqi siyosat idoralari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o'tkazib kelinmoqda, shuningdek, transport va boshqa yo'nalishlardagi vazirlik hamda idoralar o'rtasida samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Ishonç bilan aytish mumkinki, so'nggi yetti yil Toshkent va Dushanbe uchun savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasida ijobiy natijalarga erishishda muhim davr bo'ldi.

Joriy yil 11-12-mart kunlari Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston — Tojikiston hukumatlararo qo'shma komissiyasining 11-yig'ilishida tomonlar o'zaro tovar ayirboshlash hajmi sezilarli darajada oshgani, shuningdek, so'nggi yillarda uning miqdori bir necha o'n barobar ko'payganini qayd etildi. Jumladan, ikki davlat o'rtasidagi o'zaro tovar ayirboshlash hajmi joriy yilning yanvar-fevral oylarida qariyb 120 million AQSH dollariga yetdi. Ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 40 foizdan ziyodga o'sgan. Savdo aylanmasi sezilarli darajada kengaydi, bunda chegara hududlarida savdo markazlarining ochilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda tojik kapitali ishtirokida 289 ta korxonaga faoliyat yuritmoqda, Tojikistonda esa mamlakatimiz residentlari ishtirokida 71 ta korxonaga tashkil etilgan. 2023-yil oxiriga qadar Investitsiya dasturi doirasida Tojikistonning qariyb 50 million dollarlik sarmoyasi o'zlashtirildi. 2021-yilda sanoat kooperatsiyasi loyihalarini ishlab chiqish va ilgari surish maqsadida O'zbekiston — Tojikiston investitsiya kompaniyasi tashkil etildi.

Transport-logistika sohasida ham yuqori natijalarga erishildi. 2017-yilda Toshkent — Dushanbe yo'nalishida havo qatnovi tiklangani, 2022-yilda mazkur yo'nalishda yo'lovchi poyezdi, shuningdek, “Toshkent — Xo'jand” va “Qo'qon — Shaydon” yo'nalishlarida muntazam xalqaro avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgani ushbu jabhadagi muhim voqealardan biri bo'ldi.

2018-yilning 9-mart kuni O'zbekiston va Tojikiston Prezidentlari Dushanbe shahrida 2011-yilda qatnovi to'xtatilgan G'alaba — Amuzang — Xushadi davlatlararo temir yo'l tarmog'ining qayta tiklangan qismini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi.

So'nggi yillarda mamlakatlar o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalar ko'p qirrali va ko'p darajali xususiyatga ega bo'ldi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Bunga O'zbekiston Prezidentining qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlari, hamkorlik, o'zaro yordam va hamjihatlikni mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan muhim tashabbuslari ko'p jihatdan yordam berdi. Ushbu sa'y-

harakatlar Tojikiston rahbariyati tomonidan ham yuqori baholandi. 2021-yil 11-iyun kuni Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun birinchi darajali “Zarriqto'j” ordeni bilan taqdirledi.

Keyingi yillarda O'zbekiston va Tojikistonda ikki davlat madaniyati kunlarini o'tkazish odatiy tusga kirdi. Madaniyat kunlari doirasida taniqli rassom va hunarmandlarning badiiy ko'rgazmalari, madaniyat hamda san'at ustalari ishtirokidagi konsert dasturlari, kinofestivallar o'tkazilmoqda. Teatr san'ati sohasidagi ikki tomonlama aloqalar ham jadallashdi. Xususan, oxirgi uch yilda ikki mamlakat teatr jamoalarining 15 dan ortiq o'zaro ijodiy gastrollari tashkil etildi.

Bundan tashqari, Tojikiston san'at va madaniyat vakillari O'zbekistonda o'tkazilayotgan festivallar va boshqa tadbirlarda muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Tomonlar, shuningdek, chegaradosh hududlar o'rtasida madaniy-gumanitar hamkorlikni faollashtirishga alohida ahamiyat qaratmoqda. Jumladan, 2018-yilda So'g'd va Namangan viloyatlari hamda 2019-yilda Hisor tumani va Surxondaryo viloyati o'rtasida o'tkazish punkting ochilishi munosabati bilan hamkorlikda madaniy tadbirlar tashkil etildi.

O'zbek va tojik xalqlari o'zining boy tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylashga alohida e'tibor bilan qaraydi. O'zbekistonda 17 milliondan ziyod tojik diasporasi vakillarining milliy o'ziga xosligi, tili, madaniyati va an'analarini asrab-avaylash uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda 253 ta maktabda ta'lim tojik tilida olib borilmoqda. Samarqand, Termiz va Farg'ona davlat universitetlarida ta'lim tojik tilida olib boriladigan guruhlar tashkil etilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda tojik tilida 4 ta gazeta chop etiladi, 5 ta telebustur va 30 ta radiodastur efga uzatilmoqda. Bu borada Respublika tojik milliy-madaniy markazi, shuningdek, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Farg'ona, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahridagi madaniyat markazlari muhim o'rin tutadi.

Muxtasar aytganda, ikki davlat o'rtasidagi keng qamrovli va ko'p qirrali hamkorlik yangi sur'at kasb etib, mazmunan boyib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga bo'lajak davlat tashrfi esa ikki qardosh xalq o'rtasidagi azaliy do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro ishonç munosabatlarga asoslangan davlatlararo muloqotni har tomonlama mustahkamlash va boyitish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

“Dunyo” AA

## QUR'ONI KARIMNING NOYOB NUSXASI ZOMINDAGI MASJIDGA TOPSHIRILDI

## Boshlanishi 1-betda

Keyinchalik qo'lyozma sahifalari ancha vaqt katta langarlik to'xta bobo Rajabovning uyida saqlangan. KGB xodimlari uzoq urinishlardan so'ng 1983-yili turli tahdid va zug'umlar bilan qo'lyozmaning bir qismini olib ketadi. 1990-yillarda masjidida “Katta Langar Qur'oni”ning 12 ta sahifasi qolgan ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda mazkur sahifalar Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda.

Ushbu qo'lyozmaning yana bir sahifasi Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasida, ikki sahifasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat kutubxonasida, boshqa bir sahifasi esa O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Shu tariqa mazkur qo'lyozmaning jami 97 sahifasi (81 tasi — Rossiya Fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida, 16 tasi esa — O'zbekistonda) saqlanmoqda.

Mazkur kitobni taqdiq etgan rus sharqshunos olimi Yefim Rezvan ma'lumotiga ko'ra, qo'lyozmaning yaratilish tarixi VIII asrning oxirgi choragi — arab tili grammatikasi qoidalari shakllangan davrga to'g'ri keladi. Ushbu taqdiqotchi 1998-yilda mazkur qo'lyozma haqida yirik xalqaro ilmiy jurnaldagi maqola e'lon qiladi. Oradan ko'p o'tmasdan, fransuz olimi F.Derosh Y.Rezvan bilan bog'lanib, qo'lyozmaning boshqa sahifalari O'zbekistonda saqlanishini ma'lum qiladi. Mamlakatimiz hukumati qo'lyozma bilan 1999-yilda “Katta Langar Qur'oni”ni o'rganish bo'yicha maxsus ilmiy ekspeditsiya tashkil etiladi. O'zbek, rus, fransuz va boshqa xorijlik olimlardan iborat ekspeditsiya a'zolari izlanishlar davomida bir qator qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga erishadilar.

Qo'lyozmaning Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida E-20 inventar raqami bilan saqlanayotgan qismi 81 sahifadan iborat bo'lib, matnlar arab xatining kufiy-hijoziy yozuvida sayqallangan teri — pergamentga bitilgan. Qo'lyozmaning charm muqovasi XIV asrga tegishli bo'lib, u XVII asr o'rtalarida ta'mirlangan.

Ushbu sahifalardan Qur'oni karimning 44 ta surasi o'yatlari (shundan 22 tasi to'liq) o'r'in olgan. Yozuvdagi farqlarga qaraganda, bu qo'lyozma ikki nafar kotib tomonidan ko'chirilgan.

Ekspeditsiya natijasida olimlar O'zbekistonda va Rossiyada saqlanayotgan Qur'on sahifalari aynan bitta qo'lyozmaga tegishli ekanini aniqlashdi.

2000-yilning may oyida rossiyalik va niderlandiyalik olimlarning izlanishlari natijasida, Groningen

(Niderlandiya) universiteti Izotop tadqiqotlari markazida mazkur qo'lyozma pergamentning namunalarini zamonaviy texnikalar yordamida radio-karbon tahlilidan o'tkazildi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, 95,4 foiz aniqlikda ushbu qo'lyozma milodiy 775-995-yillar oralig'ida ko'chirilgan bo'lishi mumkinligi haqida xulosa berildi. Olimlar ushbu xulosa-ga tayanib, qo'lyozma VIII asrning so'nggi choragiga tegishli, degan to'xtamga kelishgan. Bu xulosani fransuz sharqshunosi F.Derosh ham tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda yurboshimizing tashabbusi bilan barcha sohalarda bo'lgani kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi boy tarixiy merosimizni tiklash, xalqimizga yetkazish va targ'ib etishga jiddiy ahamiyat berilmoqda va bu borada ko'p ishlar qilinmoqda. Jumladan, mamlakatimiz bo'yicha 900 ga yaqin masjidlar yangidan bunyod etildi, qayta tiklandi va ta'mirlandi, Haj va Umra ziyoratlariga borish uchun imkoniyatlar keskin oshirildi, buyuk aziz-avliyolarimizning qadamjolari har tomonlama o'zlashtirildi. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari hamda O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi manbalar nashr qilinmoqda.

Bu haqda so'z yuritganda, “Katta Langar Qur'oni”ning mavjud sahifalari yaxlit kitob holida to'planib, uning faksimile nuxsasi Avstriya poytaxti Vena shahrida yuksak matbaa sifati bilan tayyorlanganini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning topshirig'iga binoan, 17-aprel kuni Jizzax viloyatining Zomin tumanida ana shu noyob Qur'on nuxsasini “Ma'rifati” jome masjidiga topshirish marosimi bo'lib o'tdi.

Tadbirda mamlakatimizda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, bu boradagi boy merosimizni tiklash va targ'ib etish, uni xalqimizga, kelajak avlodlarga bezavol yetkazish bo'yicha so'nggi paytda olib borilayotgan keng ko'lami ishlar, “Katta Langar Qur'oni”ning tarixiy, diniy va ilmiy ahamiyati haqida atroflicha so'z yuritildi.

Qur'oni karimning mazkur nuxsasi “Ma'rifati” jome masjidiga topshirildi. Jizzax viloyati bosh imom-xatibi M.Jabborov bu noyob sovg'ani qabul qilib oler ekan, viloyat mo'min-musulmonlari nomidan davlatimiz rahbariga chuqur minnatdorlik bildirdi.


Marosimda Prezident maslahatchilari X.Sultonov, M.Kamilov, Jizzax viloyati hokimi E.Saliyev va boshqalar ishtirok etdi.

O'ZA

O'zbekiston tashabbuslari amalda

# YOSHLAR HUQUQLARINI TA'MINLASHGA CHAQIRIQ

## o'zaro do'stlik va hamjihatlik muhiti ustuvorligiga qaratilgan



**Akbarshoh TESHABOYEV,**  
FA Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

**Milliy, mintaqaviy va xalqaro doirada yoshlar uchun yetarli shart-sharoit yaratish, salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga doir tashabbuslarni ko'tarish, buning uchun zarur chora-tadbirlar ko'rish yangi O'zbekiston uchun muhim masalalardan. BMT Bosh Assambleyasi, MDH, SHHT, IHT, TDT va boshqa tuzilmalarda yoshlar masalasiga e'tibor qaratilgani, bu borada eng ko'p takliflar ilgari surilgani fikrimiz tasdig'idir. Mana shu sa'y-harakatlar samarasi o'laroq, O'zbekiston 2018-yili SHHT Yoshlar kengashiga, 2020-yilda MDH Yoshlar masalalari bo'yicha kengashga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindi. Bu yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatining amaliy e'tirofi bo'ldi.**

**MDH istiqboli uchun**

O'zbekistonning MDH doirasidagi ishtiroki va faolligi sezilarli darajada ortdi. Jumladan, tarixda ilk marotaba 2020-yilda mamlakatimiz Tashkilotga raislik qildi. Pandemiya davri bo'lishiga qaramay, Hamdo'stlik doirasida 60 dan ziyod xalqaro tadbir muvaffaqiyatli o'tkazilgani hamda 70 ga yaqin muhim hujjat qabul qilindi. Davlatimizning tuzilmadagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Taraqqiyotimizning muhim jihatlari o'zida muvaffaqiyatli "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham tuzilmaga a'zo davlatlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, MDH mamlakatlari bilan an'anaviy, keng qamrovli va strategik sheriklikni bundan buyon ham kengaytirib borish bo'yicha samarali ko'rsatkichlar belgilangan.

Davlatimiz MDH doirasida sheriklikni yanada kengaytirishga qaratilgan dastur va loyihalar bo'yicha ko'plab takliflar berib kelmoqda. Xususan, a'zo davlatlardagi yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator e'zgu tashabbuslar ilgari surilganini qayd etish joiz.

**Birinchi taklif.** 2022-yil 14-oktabrda MDH davlat rahbarlari kengashi majlisida o'zaro innovatsion hamkorlik va yoshlar masalasida munosabatlarni sohasida qabul qilingan strategik dasturiy hujjatlarini amalga oshirish uchun 2023-yil O'zbekistonda MDH yosh olimlarining "Yoshlar — innovatsiya tarafdori" shiori ostidagi birinchi kongressini o'tkazish taklif etildi.

**Ikkinchi taklif.** 2023-yil 13-oktabrda MDH davlat rahbarlari kengashi majlisida Toshkent shahrida tadbirlarga boy dastur tayyorlanayotgani, shuningdek, "Hamdo'stlik kubogi" futbol turnirini qayta tiklash va yoshlar jamoalari o'rtasida navbatdagi uchrashuvlarni O'zbekistonda o'tkazish bo'yicha takliflar bildirildi.

O'tgan yillarda mazkur takliflar amaliyotga ko'chib, MDH davlatlaridagi yoshlar o'rtasida o'zaro do'stlik, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash borasida yangi muhit shakllanishiga xizmat qilmoqda.

**Toshkentning yangi maqomi**

Toshkent shahri tuzilmaga a'zo davlatlar orasida birinchi Yoshlar poytaxti maqomiga ega bo'ldi. O'tgan yili 8-iyunda Sochida MDH

hukumat rahbarlari kengashining "MDH yoshlar poytaxti" xalqaro loyihasini ro'yobga chiqarish bo'yicha yig'ilishida Toshkent shahrini MDHning birinchi yoshlar poytaxti, deb e'lon qilish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Loyiha e'lon qilingandan keyin o'tgan besh yilda ushbu maqomga ilk marotaba aynan aholisining yarmi yoshlardan iborat bo'lgan Toshkent shahrining loyiq topilgani juda katta tarixiy natijadir.

Bu haftada poytaxtimiz nufuzli xalqaro tadbirga mezbonlik qilmoqda. Tadbirning ochilish marosimida ishtirok etgan Rossiya, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston delegatsiyalari rahbarlari yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosati to'g'ri, oqilona va yoshlar bilan hamfikir tarzda yuritilayotganini yakdillik bilan e'tirof etdi.

Shu tariqa MDH davlatlari yoshlari aynan Toshkentda birlashdi, taraqqiyotning kelgusi istiqbollari to'g'risida o'zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur nufuzli tadbir tuzilma a'zolari o'rtasida madaniy-gumanitar, ijtimoiy, texnologik, ekologiya, innovatsiya va xalqaro sohalarida qator ijobiy jihatlari bilan alohida ahmiyatga ega.

**Birinchiidan,** ushbu loyiha Hamdo'stlik doirasida madaniy-gumanitar sohalarida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shadi.

**Ikkinchiidan,** loyiha o'zaro chiqish Tashkilotga a'zo davlatlarning yoshlar bilan ishlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtiradi.

**Uchinchiidan,** Hamdo'stlik davlatlari o'rtasida yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida o'zaro tajriba almashish imkoni paydo bo'ldi.

Bu borada, ayniqsa, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati yo'nalishidagi keng ko'lami islohotlar haqida Hamdo'stlik davlatlarining yoshlar bilan ishlashga mas'ul tuzilmalari rahbarlariga zarur ma'lumotlar berilishi, ularning yurtimizdagi yutuqlarni o'z ko'zi bilan ko'rish, tom ma'noda, yangi O'zbekistonning yoshlar bilan ishlash borasidagi ijobiy tajribasini joriy etishga xizmat qiladi.

**To'rtinchidan,** Hamdo'stlik davlatlari yoshlari o'rtasida xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan musharakat fikr va maqsadlar shakllanadi.

Bu borada MDH Bosh kotibi Sergey Lebedovning tabrigidagi fikrlar e'tiborga loyiq: "Toshkent Hamdo'stlik shaharlari orasida birinchi bo'lib MDH yoshlar poytaxti degan yuksak maqomni oldi.

Toshkent yoshlar bilan ishlash bo'yicha salmoqli va umuman qo'llanadigan boy tajribaga, jamoatchilikning qiziqarli tashabbuslariga hamda serqirra madaniy hayotga ega. Shahar bir necha bor keng ko'lami xalqaro yoshlar tadbirlari o'tkaziladigan joyga aylandi".

Haqiqatan, poytaxtimiz nafaqat mintaqada, balki dunyo miqyosida yoshlarni o'zida eng ko'p jamlagan, shu bilan birga, dunyo yoshlarida katta qiziqish shakllangan shaharlardan biriga aylandi. Yuqoridagi e'tirof ham buning amaliy isbotidir.

**To'rtinchisi,** ekologiya. Global iqlim o'zgarishi, havo haroratining ko'rtarilish borishi, suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishi, qurg'oqchilik, atmosfera havosida changlanishning ortishi kabi ekologik muammolar MDH davlatlari uchun katta xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada inson salomatligiga zarar yetishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda tang vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli xalqaro tadbir doirasida MDH yoshlarining e'tiborini ekologiya sohasidagi muammolarga qaratish O'zbekiston tomonining tadbirni tashkil etishda hayotiy masalalarga tayangani, tadbir dasturi puxta



kasb etadi. Muhim tarmoq va yo'nalishlar rivoji istiqbolli innovatsion ishlarni samaradorligi va o'zini oqlashiga ko'p jihadan bog'liq. Chunki yirik korxonalar, xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatida yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, zarur tajriba-sanoat sinovlari o'tkazish, innovatsion menejmentni to'liq joriy etish asosida ishlash chiqarish hajmi va daromadni oshirish, yangi hamkorlik uchun imkoniyat yaratiladi.

**Uchinchi,** volonterylik. Yoshlarni musharakat maqsad uchun bir safda jamlashda ko'ngilli faoliyat muhim ahmiyat kasb etadi. Chunki vatanparvarlik va fidoyilik qadriyatlarini volonterylik loyihalari doirasida yanada toblanadi.

O'tgan yili 27-oktabrda Bishkek shahrida tuzilmaga a'zo davlatlar hukumat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida 2024-yilni MDHda volonterylik yili, deb belgilash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini qabul qilindi. Mazkur reja asosida MDH yoshlari o'rtasida xayriy va ko'ngilli tashabbuslarni ilgari surish Hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasidagi azaliy do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

**To'rtinchisi,** ekologiya. Global iqlim o'zgarishi, havo haroratining ko'rtarilish borishi, suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishi, qurg'oqchilik, atmosfera havosida changlanishning ortishi kabi ekologik muammolar MDH davlatlari uchun katta xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada inson salomatligiga zarar yetishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda tang vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli xalqaro tadbir doirasida MDH yoshlarining e'tiborini ekologiya sohasidagi muammolarga qaratish O'zbekiston tomonining tadbirni tashkil etishda hayotiy masalalarga tayangani, tadbir dasturi puxta

ishlab chiqilganini anglatadi. Qolaversa, tadbir doirasida yoshlar loyihalari taqdimoti, tadbirkorlik, hunarmandlik, texnologiya va boshqa muhim soha hamda yo'nalishlarga doir ko'rgazmalar tashkil etilgani MDH yoshlari o'rtasida o'zaro tajriba almashish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo — Xitoy birinchi sammitida gumanitar almashinuvlar, ko'rgazmalar, konsert va ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini muntazam o'tkazish, ularga yoshlarni keng jalb qilish muhimligi ta'kidlanib, 2024-yilda Yosh iste'dodlar forumini birgalikda o'tkazish taklif etildi.

Xalqaro tadbir doirasida Toshkent — MDH yoshlar poytaxti monumenti ochilgani ham ramziy ma'noga ega. Bu yoshlar mamlakati bo'lmish serquyosh O'zbekiston Tashkilot doirasida yoshlar haqida eng ko'p qayg'uradigan, ularning o'zaro do'stlik va hamjihatlik ruhida kamol topishini istaydigan davlat ekanidan dalolatdir.

**Do'stlik va hamjihatlik tashabbuslari**

Davlatimiz rahbari mintaqada doirasidagi barcha majlis, uchrashuv va sammitlarda yoshlar uchun qulay imkoniyat yaratish, ular o'rtasida o'zaro ishonch muhitini shakllantirish, musharakat maqsadlar sari intilayotgan yigit-qizlarning ahlil va inoq bo'lishi uchun ko'plab konseptual, tashkiliy va huquqiy ahmiyatga ega taklif hamda tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda. Jumladan, yoshlarni o'zaro do'stlik ruhida kamol topirish, bu borada mintaqada davlatlari o'rtasidagi strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qator takliflar bildirganini qayd etish joiz.

**Birinchi,** 2022-yil 16-sentabrda SHHT davlat rahbarlari kengashining kengaytirilgan tarkibidagi majlisida yoshlarning ekstremistik tashkilotlarga jalb etilishiga yo'l qo'ymaslik, turli nosog'lom mafkuralarga qarshi barqaror immunitetni shakllantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilish, shuningdek, Termiz shahridagi transport-logistika xabining zamonaviy infratuzilmasidan foydalangan holda Afg'onistonni gumanitar qo'llab-quvvatlash

bo'yicha maxsus jamg'arma ta'sis etish orqali fond mablag'ini mazkur mamlakatdagi ijtimoiy inqirozni bartaraf etish, yoshlar uchun ta'lim dasturlari va sog'liqni saqlash sohasidagi loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirish bo'yicha taklif bildirildi.

**Ikkinchi,** 2023-yil 1-yanvarda Prezidentimiz Qirg'izistonga davlat tashrif doirasida o'tkazilgan muzokaralarda o'zbek va qirg'iz yoshlarini qo'llab-quvvatlash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitimlar imzolandi.

**Uchinchi,** Markaziy Osiyo — Xitoy birinchi sammitida gumanitar almashinuvlar, ko'rgazmalar, konsert va ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini muntazam o'tkazish, ularga yoshlarni keng jalb qilish muhimligi ta'kidlanib, 2024-yilda Yosh iste'dodlar forumini birgalikda o'tkazish taklif etildi.

**To'rtinchisi,** Prezidentimiz 2021-yil 7-avgustda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchinchi maslahat uchrashuvida butun dunyoda yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash davom etayotgan ayni pallada Markaziy Osiyoning kelajagi bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash lozimligini ta'kidladi.

**Beshinchisi,** davlatimiz rahbari 2023-yil 14-sentabrda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi maslahat uchrashuvida yoshlarning bilim va malakasini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarini birlashtirish, ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash va bandligini ta'minlash maqsadida shu yo'nalishdagi xalqaro tashkilotlar ishtirokida Markaziy Osiyo yoshlari imkoniyatlarini kengaytirish va ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish markazini tashkil etish taklifini bildirdi.

**Olтинchi,** 2023-yil 3-noyabrda Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida Turkiy dunyo kreativ yoshlari markazini ochish bo'yicha tarixiy taklif ilgari surildi.

**Yetinchisi,** Prezidentimiz o'tgan yili Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti o'n oltinchi sammitida har yili mamlakatlarimizda navbat bilan madaniyat, san'at va kino haftaliklarini o'tkazib borish, yoshlarning ijodiy festivallari va innovatsion hamkorlik platformasini yo'lga qo'yish, fundamental ilmiy yo'nalishlarda o'zaro hamkorlikni kuchaytirish aloqalarimiz rivojiga kuchli turki berishini qayd etdi.

**Sakkizinchi,** 2023-yil 15-sentabr kuni Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida suv va boshqa tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish madaniyatini shakllantirish, maxsus dastur qabul qilgan holda yoshlar tashabbuslari va startaplarni qo'llab-quvvatlash masalalarida yoshlar bilan ishlashni mintaqaviy darajada tashkil etishga alohida e'tibor qaratish tashabbusi ko'tarildi.

**To'qqizinchi,** davlatimiz rahbari BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha konferensiyasi (COP28)da COP Yoshlar konferensiyasini mamlakatimizda yuqori darajada o'tkazishni taklif qilindi.

Yurtimiz mezbonlik qilgan ushbu forum ham ramziy ahmiyatga ega bo'lib, yoshlar e'tiborini iqlim o'zgarishiga qaratish, ularda tabiiy atrof-muhitga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda muhim ahmiyat kasb etdi. Forum doirasida tashkil etilgan Markaziy Osiyo yoshlar ekologik oromohida mintaqa yoshlari fikrlashdi, maqsad va g'oyalarni o'troqlashdi.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ekofaollari barqaror rivojlanish madaniyatini ilgari surish hamda bolalar va yoshlar e'tiborini iqlim o'zgarishiga qaratish bo'yicha Markaziy Osiyo strategiyasini ishlab chiqish uchun o'z tashabbuslarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ldi.

**O'ninchi,** davlatimiz rahbari joriy yil 24-yanvarda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zinpin bilan rasmiy muzokara chog'ida ikki davlat hamkorligida Yoshlar innovatsiya qo'shma forumini o'tkazish taklifini bildirdi.

Mazkur takliflar amaliy maydonga ko'chib, mintaqada davlatlaridagi yoshlar o'rtasida o'zaro do'stlik, bir-birini tushunish va qo'llab-quvvatlash borasida yangi muhit shakllanishiga xizmat qildi. Bugun o'zbek, tojik, qirg'iz, turkman, afg'on, qozog, ozarbayjon, xitoy hamda mintaqadagi boshqa xalqlar yoshlari o'rtasida mustahkam ko'priq — o'zaro ishonch va hurmat rishatasi shakllandi, deiyshga asoslar yetarli.

**BMT minbaridan dunyoga xitob**

Yangi O'zbekiston nafaqat mintaqada doirasida, balki butun dunyo yoshlari o'rtasida o'zaro do'stlik va ishonch yili shakllanishi tarafdori. Davlatimiz rahbari yuksak minbarlarda turib, dunyo yoshlarini istiqbol uchun birgalikda harakat qilish, e'zgu maqsadlar yo'lida o'zaro birlashishga undovchi, yosh avlod huquq va manfaatlarining to'la kafolatlanishi uchun mustahkam huquqiy asoslarni yaratishga qaratilgan tarixiy tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda.

**Birinchiidan,** BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida "Sayoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat", degan fikri kun tartibida yoshlar masalasi ustuvor ahmiyat kasb etishi, dunyoning kelgusi taraqqiyotini belgilovchi avlod uchun global va milliy doirada zarur huquqiy, tashkiliy va institutsional ishlarni bajarish dolzarb ahmiyat kasb etishini yana bir bor isbotlab berdi.

**Ikkinchiidan,** BMT Bosh Assambleyasining 73-sessiyasida O'zbekiston BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi. Davlatimiz rahbarining mazkur tashabbusi dunyo miqyosida yoshlarning barcha sohadagi huquqlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi xalqaro va milliy doiralarda zarur huquqiy kafolatlar paketini yaratishni nazarda tutuvchi ilk tarixiy tashabbusdir.

**Uchinchiidan,** davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasida qadimiy Samarqand shahrida muntazam o'tkazilayotgan Inson huquqlari muloqotlari doirasida Global ta'lim forumini tashkil etishni taklif qilindi. Mazkur tashabbus BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida ham ilgari surilgan edi.

**To'rtinchidan,** BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida tashkilot va ixtisoslashgan tuzilmalari bilan samarali hamkorlik o'rnatish maqsadida Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko'maklashish bo'yicha ishchi guruh tashkil etish va uning doirasida "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030" dasturini ishlab chiqish taklifi bildirildi.

O'tgan yillarda dunyoning eng yuksak minbaridan bildirilgan, dunyo yoshlarining o'zaro do'stlik, ishonch va hamjihatlik ruhida kamol topishiga xizmat qiluvchi e'zgu tashabbus va g'oyalari yangi O'zbekistonning jahon yoshlari kelajagi va taraqqiyoti uchun mas'uliyatni eng yaxshi his qiluvchi va boshqalarni ham ushbu maqsad atrofida birlashishga chaqiruvchi xalqaro huquqning tashabbuskor subyekti ekanini namoyon etadi.

Mamlakatimizning BMT, Parlamentlararo ittifoq, MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti hamda boshqa xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida yoshlarning huquqlarini ta'minlash, dunyo yoshlari o'rtasida o'zaro do'stlik muhitini qator toptirishga qaratilgan e'zgu g'oya va tashabbuslari mintaqada va jahondagi yoshlarning ko'pqirrali do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga muhim hissa qo'shadi.



## Islohot odimlari



# HAR BIR BOSQICH QO'SHIMCHA ISH O'RNI DEGANI

## O'zbekiston to'qimachilik sanoati eng ko'p aholi bandligini ta'minlamoqda



Iroda TOSHMATOVA,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida hozir mazkur soha yurtimizda aholini eng ko'p band qilgan sanoat tarmog'i ekani ham alohida ta'kidlandi. Ayni paytda 6 mingdan ziyod korxonada 570 ming kishi ish bilan ta'minlangan. Bu, albatta, ishlab chiqarish quvvatlari o'sishi, sohada natijadorlik oshishi bilan ham bog'liq. Birgina misol, o'tgan yili mamlakatimizda 8 milliard 200 million dollarlik to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Bu ko'rsatkich 7-yil oldingiga nisbatan 4,2 barobar ko'p.

### Ekspart ish uzluksizligini ta'minlaydi

— Avvallari o'zimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik kiyimlari matosi cho'zilib ketardi. Aholining mahsulot sifatiga ishonchi yo'q edi, faqat xorij kiyimlarini xarid qilardik, — deydi Jizzax shahridagi "Jizzax eko textile" MCHJ ijrochi direktori, "Do'stlik" ordeni sohibi Erkin Qobilov. — Bu yerda gap tikishda emas, ishlab chiqarilayotgan ip-kalava, matolarda kamchiliklar bor edi. Chunki tadbirkorlarimizda paxta xomashyosini qayta ishlash tajribasi ham, zamonaviy asbob-uskunalar ham bo'lmagan. Hozir bari boshqacha, yurimiz ayni shu yo'nalishda keyingi yillarda tez sur'atlarda ilg'orladi. Sohaga zamonaviy texnologiyalar kirib keldi, raqobat kuchaydi. Hozir seklardagi asbob-uskunalar ko'rsangiz, so'nggi rusumdagi kompyuterlar yordamida ishlaydi. Maxsus dasturlarning o'zi tayyor assortiment asosida mahsulot ishlab chiqaryapti. Buning hisobiga to'qimachilik mahsulotlari sifati tubdan o'zgardi, hatto xorij bozorida talab ortyapti. Viloyatimizda shunday korxonalar borki, ishlab chiqarayotgan trikotaj mahsulotlarini yuz foiz eksport qiladi. Lekin shu vaqtgacha birorta konteyner qaytib kelibdi, degan gap eshitmadik. Demak, biz mazkur sohada jahon standartlari talablariga moslashdik. Bu aytishgagina oson, ammo yillar davomida faqat paxta xomashyosini eksport qilgan davlat uchun katta yutuq.

Erkin aka to'qimachilik sohasida uzoq yillardan beri ishlab keladi. "Jizzax eko textile" korxonasi esa to'rt yil oldin ish boshlagan bo'lib, asosiy yo'nalishi paypoq ishlab chiqarishdan iborat. O'tgan yili 10 milliard so'mlikdan ortiq paypoq ishlab chiqarildi, bu yil quvvatni yanada oshirish rejalashtirilgan. Dastlabki yillarda 50 kishi ishlagan korxonada



bugungi kunga kelib, 160 xodim mehnat qilib, daromad topyapti. Xotin-qizlarning aksariyati yaqin-atrofdagi mahallalardan. Ko'pchiligi korxonaga ochildigan buyon ishlaydi, maoshi har oy vaqtda berilishidan mamnun.

Korxonaning asosiy maqsadi — eksport hajmini oshirish. MCHJ rahbarining aytishicha, doimiy eksport ish uzluksizligini ta'minlab, daromadni yanada oshiradi. Korxonada mahsulotlari 2022-yildan buyon eksport qilyapti. O'tgan yili bu 1 million dollar atrofida daromad keltirgan bo'lsa, joriy yilda 2 milliondan oshirish reja qilingan. Demak, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish kerak. Shu maqsadda xorijdan eng zamonaviy, yuqori texnologiyali qo'shimcha asbob-uskunalar buyurtma qilingan. Korxonada mahsulotlari sifati va assortimenti fransiyalik hamkorlarga ham ma'qul kelgan.

— Yurtimiz tadbirkorlari qaysi sohada bo'lmasin, jahon bozoriga dadil chiqmoqda. To'qimachilik sohasida yangi bozorlar ochib, Yevropa davlatlariga kirib boryapmiz, ularning sifat talablarini to'liq bajaryapmiz, — deydi tadbirkor. — Shunchaki yo'lga tushib olish kerak. Chunki Yevropa bozori biz uchun hali yangi, uni o'riganib olsak, eksportda muammolar bo'lmaydi. Qolaversa, bu borada tadbirkorlarga katta imtiyozlar berilyapti. Korxonamiz loyihasi qilingan vaqtimizda bankdan ajratilgan kreditni olish uchun bir necha oylab kutganmiz. O'shanda bu ishni yig'ishtirmoqchi ham bo'lganmiz. Hozir banklarning o'zi kelib, kredit olinglar, deyapti. Eksportni boshlagan vaqtimizda esa

buyurtmachi birinchi 30 foizini, mahsulotni olgach, 45 kundan keyin esa qolganini to'lab berardi. Bugun buyurtmachi kelishilgan pulning hammasini 15 kun oldin o'tkazib beryapti. Qarang, qanday imkoniyat va sharoitlar bor. Xomashyo masalasida ham hech qanday muammo yo'q, talabning barini viloyatimiz o'zidan to'ldiramiz. Masalan, 1990-yillarda paypoq to'quv korxonasi direktori bo'lib ishlagan bo'lsam, Jizzax viloyatida bitta ham ip yigiruv fabrikasi yo'q edi. Xomashyoni to'liq Farg'onadan olib kelardik. Hozir viloyatda paxta tolasi to'liq qayta ishlanib, bir yilda 70 ming tonnadan ortiq ip-kalava ishlab chiqaryapti. Joriy yilda ip-kalava ishlab chiqarish korxonalarini soni 12 taga yetadi. Kelgusida paypoq ishlab chiqarishdan tashqari, faoliyatimizni kengaytirib, "xomashyodan — tayyor mahsulotgacha" zanjirini yaratishni maqsad qilganmiz.

### Zanjir bir-biriga ulanmoqda

"Bu sohada yagona to'g'ri yo'limiz — mavjud xomashyoni to'liq qayta ishlab orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va an'anaviy arzon bozorlarga kirib borish", deya ta'kidladi davlatimiz rahbari yig'ilishda. Xo'sh, bu nima degani? Albatta, gap paxta xomashyosini to'liq qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirish haqida bormoqda. Bu borada tajribamiz ham, natijalarimiz ham

o'sib boryapti. Endi navbat to'qimachilik sanoatida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga qo'shilishga. Ushbu sohada yanada ko'proq ishlab chiqarish quvvatlarini yaratib, aholi bandligini ta'minlash, degani.

To'qimachilik sanoati O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy rivoji, balki jahon bozoriga o'rini belgilab beruvchi asosiy yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. 25 yildan ko'proq vaqt davomida dunyo bozoriga faqat paxta xomashyosini sotib kelgan mamlakatimiz bugungi kunga kelib, paxtani qayta ishlashning to'liq zanjirini yaratadi va "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi tayyor to'qimachilik mahsulotlari ko'plab davlatlarga kirib boryapti. Bunda paxta-to'qimachilik klasterlarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Mahsulot yetishtirishdan to'qayta ishlagacha bo'lgan zanjirni o'zida birlashtiradigan bu tizim tarmoqning asosiy kuchiga aylangan rost.

— To'qimachilik mahsulotlarimiz tayyor holga kelgunga qadar bir necha bosqichdan o'tadi, — deydi Qashqadaryo viloyatidagi "Khalil cluster" MCHJ ta'sischi, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi Ilhomjon Xalilov. — Ya'ni klasterimizda paxta xomashyosini yetishtirishdan tortib, qayta ishlab va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonining bari qamrab olingan. Ayni paytda asosan, ip-kalava ishlab chiqarayotgan klaster tez orada gazlama, kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlarini xaridorlarga yetkazib berishni boshlaydi. Kunlik ishlab chiqarish quvvatimiz ip sifatiga bog'liq. Masalan, 30-raqamli ipdan 11 tonna mahsulot ishlab chiqaramiz. Ip qancha sifatli bo'lsa, shuncha kam chiqqacha chiqadi. 20-raqamli ipdan esa kuniga 14-15 tonnagacha mahsulot ishlab chiqarishimiz mumkin.

Klaster 2021-yilda ta'sis etilgan bo'lib, 5500 gektar yer maydoniga ega, hosildorlik esa 18 ming tonnani tashkil etadi. Klastering Qarshi tumanida ishga tushirilgan zavodi kuniga 80-100 tonna paxta xomashyosini qayta ishlab chiqarishga ega. Zavod Germaniya va Turkiyadan keltirilgan zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan, 50 dan ortiq yangi ish o'rni ham yaratildi.

Boshida 20 kishi bilan boshlangan korxonada ishlab chiqarish quvvati, 470 xodim mehnat qilib, oila tebratyapti. Xususan, loyiha qiymati 20 million dollar bo'lgan ip-kalava ishlab chiqarish zavodi ishga tushishi oridan 300 dan ziyod kishining bandligi ta'minlandi.

Korxonada yiliga 3600 tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarilib, 8-10 million dollarlik tovar eksport qilinadi.

Ilhomjon Xalilov tadbirkorlik faoliyatini boshlaganida 16 yoshda bo'lgan. Oradan yillar o'tdi, qancha qiyinchiliklarni ko'rdi. Har holda u vaqtlari hozirdekdek imkoniyatlar bo'lmaganini ta'kidlaydi. Berilayotgan imtiyozlar esa tadbirkorlarga faqat qulaylik yaratayotganini aytadi.

— Hozir qo'shimcha qiymat solig'i 12 foizga tushirilgan, avval 20 foiz edi, — deydi tadbirkor. — Birgina shu qiymatning kamaytirilishi mahsulot tannaxsini arzonlashtirib, eksportni oshirishimizga xizmat qilyapti. Bu yo'nalishda oldimizga qo'yilgan maqsadlardan biri ham shu edi. Yana bir asosiy maqsadimiz aholi bandligini ta'minlash. Har bir yangi ochilayotgan korxonada — qo'shimcha ish o'rni degani. Yaqinda "Khalil" korxonalar tarmog'ida yana bir loyihaga tamal toshi qo'yildi. Kasbi tumanida paxta va sun'iy toladan aralash ip ishlab chiqarish hamda to'qimachilik chiqindilarini qayta ishlab fabrikasi bunyod etilmoqda. Yiliga 8 ming tonna tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvati yaratiladigan mazkur korxonada kelasi yil boshida ishga tushirilishi rejalashtirilgan bo'lib, buning ortidan yana 400 dan ortiq yangi ish o'rni yaratiladi.

Bugun tadbirkorga berilayotgan imkoniyatlar, avvalo, xalq manfaati uchun ekanini unutmashimiz zarur. Biznes eham o'zini emas, ko'proq jamiyatni o'yilash kerak. Chunki jamiyat to'q, odamlar boy bo'lsagina, bizda daromad yaxshi bo'ladi, ishimiz rivojlanadi.

### Klasterlarda xorij urug'lari ekilmoqda

To'qimachilik korxonalarini uchun eng muhim masalalardan biri — xomashyo, ya'ni paxta tolasi. U yurtimizda uzoq yillardan buyon ekiladigan asosiy ekin turlaridan biri. Bugun ham paxta yetishtirishda dunyoda yetakchi davlatlar qatorida turamiz. Ammo bizda paxta eski usullarda yetishtirib kelingan, kam hosildorlik hisobiga yer maydonlaridan unumli foydalanilmagan. Hozir ana shuni o'zgartirish, kichik yerdan ham ko'p hosil olishga e'tibor qaratilyapti. Ilmii izlanishlar natijalari amaliyotga tatbiq qilinib, natijalar qayd etilmoqda.

Xususan, joriy mavsumda ilk bor xorijdan chigit olib kelinib, yerga qadalmogda. Ayni paytda chetdan olib kelingan hosildor urug' navlari 100 ming gektarga ekilyapti. Xorazm 8 ming gektarga chigitni to'liq ekib bo'lgan, Andijon ekishni yaqinda tugatadi. Boshqa hududlarda ham ishlar avjida.

Andijon viloyatida joriy yil 7051 gektarga xorijiy navlar ekilishi rejalashtirilgan bo'lib, buning uchun jami 163 tonna urug'lik chigit markazlashgan holda olib kelinayapti. Izboskan tumanidagi "Sohibi omad baraka" paxta-to'qimachilik klasterida Xitoydan keltirilgan "XinLuZhong-52" naviga mansub urug'lik chigit ekildi. Mutaxassislarning aytishicha, bu paxtachilikda ulkan yutuqlarga erishish yo'lida tashlangan navbatdagi muhim qadamdir. Endigi vazifa xorij navlari ekilgan maydonlar 1 kilometr radiusda muhofaza qilinib, karantin hududi tashkil etish, g'o'za parvarishi uchun xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilg'or va zamonaviy qishloq xo'jaligi agrotexnologiyalari ishlab chiqish, vegetatsiya davrida alohida nazoratga olish va yetishtirishda ularning aprobiatsiyasini to'g'ri va o'z muddatida o'tkazishdan iborat.

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi "TCT AgroCluster" klasterida ham xorijdan olib kelingan urug'lik chigitlar qadalmogda. Urug'liklar yurtimiz sharoiti uchun yangi bo'lgani bois, jarayonda soha mutaxassislari hamda olimlar o'z tavsiyalarini bilan ko'mak beryapti.

— Joriy yilda ilk bor g'o'zaning Xitoydan keltirilgan "F-52" navini ekdik, — deydi klaster rahbari Otabek Odilov. — Xorij navi urug'lari 8 qatorli seyalkalar yordamida yerga qadaldi. Bu yil klaster paxta maydonlarining 10 foiziga chet el navlari joylashtirildi. Tahlillarga ko'ra, ushbu nav ancha hosildor bo'lib, gektaridan kamida 60-65 sentnerdan hosil olish mumkin.

### Agrotarmoq

# DEHQONCHILIKDA YANGICHA USUL qo'l mehnati keskin kamayishiga xizmat qiladi

Farg'onada chigit ekish katta uyushqoqlik, ko'tarinkilikda olib borilmoqda. Joriy mavsumda viloyatda 77 ming 830 gektar maydonda serhosil, ertapishar paxta navlari yetishtiriladi.



Mavsum o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Gap shundaki, shu kunga qadar aksariyat maydonlarga qator oraliq'i 60 va 90 santimetr sxemada chigit ekilgan.

Endi bu o'zgaryapti. An'anaviy usuldan tashqari, qator oraliq'i 76 santimetr qilib chigit ekish tizimi ham yo'lga qo'yilyapti. Bu texnologiya yetishtirilgan hosil qo'l kuchi bilan emas, mashina yordamida terib olinishini ta'minlaydi.

Rishton tumanida 1200 gektarda shu texnologiya asosida chigit qadalyapti. Bu ishlar uchun 15 ta yuqori unumli mexanizm, 30 dan ortiq kultivator jalb etildi.

— Paxtachilik rivojlangan aksariyat mamlakatlarda ana shu sxema asosida hosil yetishtiriladi, — deydi Rishton tumani hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari

bo'yicha o'rinbosari Nodirjon Mahmudov. — Bunda bir gektar maydonda 150 mingdan 200 mingtagacha ko'chat parvarishlanadi. Bu eski usulga taqqoslanganda 80 ming dona ko'p. Natijada hosildorlik sezilarli oshadi. Ekinni begona o'tlardan tozalash, tagini yumshatish, oziqlantirish bilan bog'liq ish hajmi 25 foiz kamayadi. Ko'chatlar yaxshi rivojlanadi, har gektar yerdan 2 litrgacha yonilg'i tejash imkonini beradi. Buning hisobiga tannaxsi arzon, sifati yuqori bo'lgan sanoat xomashyosi yetishtiriladi.

Yangi texnologiya asosida yetishtirilgan hosilni terib olish bilan bog'liq masalalarga ham yechim topildi.

Farg'ona shahrida Xitoyning "Shandong Swan Cotton Industrial Machinery Stock Co. Ltd" kompaniyasi bilan paxta terish



mashinalarini yig'ish, servis xizmati ko'rsatish, mexanizatorlar uchun o'quv markazlari tashkil etish loyihasi ishga tushdi. Bu paxta-to'qimachilik klasterlari, fermer xo'jaliklariga eng maqbul narxlarida paxta terish mashinalarini sotib olish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy agregatlarni 20 foiz dastlabki to'lov bilan 10 yil muddatga lizing va 15 foiz subsidiya asosida yetkazib berish taklif qilyapti.

Xitoyda 1946-yildan buyon faoliyat ko'rsatib, 30 dan ortiq davlatga mahsulot eksport qilib kelayotgan kompaniya bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik paxta yig'im-terimida qo'l mehnati ulushini kamaytirish, terimni mexanizatsiyalashgan shaklda tashkil qilish, mahsulot tannaxsini arzonlashtirishda ko'plab qulayliklar yaratadi.

Rasuljon KAMOLOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Yuksalish pallasi

# EZGU G'OYA VA TASHABBUSLAR

## MDH yigit-qizlarini Toshkentda jamladi

Toshkent shahriga MDH yoshlar poytaxti maqomi berilishi munosabati bilan tashkil etilgan xalqaro forum yorqin voqeeliklarga boy o'tdi. "Toshkent — MDH yoshlar poytaxti" monumenti ochilishi, "Toshkent — MDH yoshlar poytaxti" sertifikatini qabul qilib olinishi, MDH Yoshlar kengashining navbatdagi yig'ilishi, Jamoat birlashmalari yoshlar forumi navqiron avlod vakillarini muhtarak maqsadlar yo'lida yana bir bor birlashtirdi. Tadbir doirasida MDHga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlardan kelgan 200 dan ortiq vakil yurtimizdagi yoshlar siyosati bilan yaqindan tanishdi. Mamlakatimizdagi keng ko'lami islohotlar, xususan, yoshlarning iqtidori va salohiyatini yuzaga chiqarish borasidagi ishlar mehmonlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

**Biz tadbir ishtirokchilarining fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.**

**Denis ASHIROV,**  
Rossiya Federatsiyasi Yoshlar ishlari bo'yicha federal agentligi rahbarining o'rinbosari:

— Yurtimizda o'tkazilayotgan nufuzli tadbirida ishtirok etayotganimiz biz uchun juda faxrli. O'ylaymanki, uchrashuv azaliy do'stlik aloqalarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda ko'p loyihalar ustida ishlaymiz. Boy tajriba va salohiyatga ega o'zbek yoshlari bilan birgalikda qiladigan ishlarimiz talaygina. Bu nufuzli tadbir ana shu vazifalarni yana bir bor rejalashtirib olish, fikr almashish imkonini berdi.

Shahringizda o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar yorqin voqeeliklarga boylik bilan e'tiborga molik. Bu O'zbekistonda yoshlar siyosatiga berilayotgan yuksak e'tiborning ifodasi hamdir.

**Narmin ASLANBEKOVA,**  
Ozərbayjon delegatsiyasi vakili:

— Mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarning ildizi uzoq o'tmishga ega. Bizlarni bir din, til va an'analari, ma'naviy qadriyatlaru madaniyat muhtarakligi birlashtirib turadi.

Yoshlar bo'yicha bir qancha loyihalarni birgalikda ro'yobga chiqaryapmiz. Yaqinda imkoniyati cheklangan yoshlar uchun festival o'tkazdik. Unda o'zbekistonlik iqtidorli bolalar ham ishtirok etdi. MDH mamlakatlari yoshlari o'rtasidagi hamkorlik doirasida yil davomida turli tadbirlar, forumlar va konferensiyalar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Ana shu tadbir-



lar doirasida vakillarimiz O'zbekistonga kelishi va o'zbek yoshlarining Ozarbayjonda bo'lishi do'stona aloqalar yanada ravnaq topishiga xizmat qilishi barobarida, barchamizni muhtarak maqsadlar yo'lida birlashtiradi.

Toshkent MDH yoshlarining birinchi poytaxti, deb e'lon qilingan bo'lsa, bu maqom 2025-yil Ozarbayjonning Gabala shahriga beriladi. Toshkentdagi uchrashuv qaysidir ma'noda bizga tajriba almashish vazifasini ham o'tamoqda. Biz Toshkentdan ko'p narsa o'rgandik. Bu esa kelgusida nufuzli tadbirlarga mezbonlik qilishimizda asqatadi.



**Asadbek O'RUNOV,**  
Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti talabasi:

— Toshkent shahri-ning MDH yoshlar poytaxti, deb e'tirof etilishi barchamizga faxr bag'ishladi. Nufuzli tadbirida o'zimizning innovatsion loyihalarimiz bilan ishtirok etdik. Maqsad — xorijlik tengdoshlarimiz bilan fikr almashish, yangi innovatsion loyihalar ustida birgalikda ishlash, qolaversa, O'zbekistonda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yana bir bor ko'rsatish.

Men "Cosmos Innovation" jamoasi asoschisiman. Jamoamiz bilan bir necha loyiha ustida ishladik va natijalarni qo'lga kiritdik. Ulardan biri Body Tester loyihasidir. Bu ilk o'zbek robot doktori — inson tibbiy ko'rsatkichlarini o'lchab beruvchi innovatsion qurilmadir. U bir vaqtning o'zida olitita — bo'y, vazn, puls, qondagi kislorod miqdori, tana harorati, qon bosimi kabi ko'rsatkichlar haqida ma'lumot bera oladi.



Bu ma'lumotlarni chek qog'ozi ko'rinishida taqdim etish uchun esa atigi 1,5-2 daqiqa kiffoya.

Bundan tashqari, elektromobillar akkumulyatorining issiq iqlim sharoitida mamlakatlar uchun ishlab chiqilgan universal moduli — Fresh energy, "Kuzatuv kemasi", masofadan turib boshqariluvchi robot kuchuk, yurtimizda birinchilardan bo'lib ishlab chiqarilgan Geoscann droni kabi loyihalarimiz yuzlab talabalar va xorijlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Ular bilan ma'lumot almashdik.

Forum MDH davlatlari yetakchi yoshlarini bir joyga jamladi, yangi g'oyalarga yo'l ochdi, fikr almashish imkonini berdi. Bu kabi xalqaro tadbirlar mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlab, yoshlarni birlashtirish, muhtarak maqsadlar yo'lida birgalikda harakat qilishga zamin yaratadi. Boshqa davlatlardagi yoshlar bilan kelajakda yangi loyihalar, forumlar tashkil qilish imkoniga ega bo'lamiz.

**Men "Cosmos Innovation" jamoasi asoschisiman. Jamoamiz bilan bir necha loyiha ustida ishladik va natijalarni qo'lga kiritdik. Ulardan biri Body Tester loyihasidir.**



**Shabnam Karim RAHIMZODA,**  
Tojikiston Respublikasi hukumati huzuridagi Yoshlar ishlari va sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari:

— Nufuzli tadbirida ishtirok etayotganimdan xursandman. Yuqori darajadagi tadbirida turli mamlakatlardan kelgan yoshlar vakillari do'stona va yuqori kayfiyatda kutib olindi. Bu tarixiy uchrashuv yoshlar hayotida unutilmas iz qoldirishi shubhasiz.

Biz turli tadbirlarda qatnashishdan tashqari mamlakatimizning tarixiy joylarida bo'ldik. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlarni ko'rib, O'zbekistonda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganiga yana bir bor amin bo'ldim.

Yurtimizdagi yoshlarning loyihalari yuqori darajada moliyalashtirilishi e'tiborga molik.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida yoshlar tug'ilib o'sgan joyini tark etadi. Bunga sabab ular uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilmaganidir. Biz esa O'zbekistonning har bir bo'shasida yoshlarga zo'r sharoit va imkoniyat yaratilganiga guvoh bo'ldik. Bu yigit-qizlarning salohiyatini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Ular kuch-g'ayrati, ilmu ma'rifati o'zining hududini rivojlantirishga sarflaydi.

Bu tashrif birinchi emas, umid qilamizki, oxirigisi ham bo'lmaydi. Mehmondo'st Toshkentda kelgusi safar do'stlik bilan yana uchrashamiz va birgalikda yoshlarga doir loyihalarni amalga oshiramiz.

**Shirin OBIDOVA,**  
O'zbekiston volontyorlari assotsiatsiyasi rahbari:

— Barchamiz tarixiy voqeaning guvohimiz. MDH doirasida birinchi marta yoshlar poytaxti belgilandi va bu maqomga Toshkent ega bo'ldi. Bu yerda biz MDH davlatlarida eng faol, eng katta yutuqlarga erishilgan loyihalar egalari hamda bir-biri bilan bilim almashishga, yangi g'oyalarni bo'lishishga tayyor yoshlar bilan uchrashdik. Umid qilamizki, bu maydon keyingi yillarda ham do'stlik, rivojlanish sari yo'lining bardavom va chiroyli qadamlarini belgilab beradi. Bu yo'lida volontyorlik mavzusiga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Sinovli pandemiya davrida butun dunyo volontyorlarning qadriini anglab yetdi. Nafaqat mehmonlarimiz, balki o'zbek yoshlari ham eng faol volontyorlik guruhlari hayoti, loyihalari bilan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Bundan tashqari, 2024-yil butun MDHda volontyor-



lik harakatlari yili, deb e'lon qilinganini e'tiborga olgan holda rejalashtirilgan sa'y-harakatlar, tadbirlar bilan bo'lishildi.

O'zbek xalqi har doim yordam berishga tayyor. Psixolog, yurist, ijtimoiy xodim kabi volontyorlik loyihalari bu yerda taqdim qilindi. "Yaxshilik qil", "Mo'jizalar davri" tashabbuskor guruhlari taqdimoti xorijlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi. Onkologiya bilan kurashayotgan bolajonlardan hol-ahvol so'raydigan tibbiy volontyor guruhimiz ham mavjud. Ular ham taqdimotda ishtirok etdi.

Ko'pgina mamlakatlardagi volontyorlik faoliyatidan yaxshi xabaridormiz. Bu tadbir orqali esa ularning tajribasini yoshlarimizga tanishtirishga erishdik. Hamkorlik doirasida samarali loyihalarni bir-birimizga taqdim eta olдик.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Risolat MADIYEVA yozib oldi.**

Forum

## ILM-FAN SOHASIDAGI ALOQALAR MUHIM BOSQICHDA



**Sarvarxon BUZRUKXONOV,**  
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

O'zbekiston — Tojikiston rektorlar forumi doirasida imzolangan ikki tomonlama hujjatlarida Tojikiston oliy o'quv yurtlari bilan kimyo texnologiyasi, energetika, mashinasozlik, sanoat texnologiyasi, biotexnologiya, irrigatsiya va suv resurslari, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, farmakologiya, farmatsevtika kabi sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish belgilab berilgan.

Akademik almashinuv doirasida o'tgan davrda Tojikiston oliy o'quv yurtlaridan 30 dan ortiq professor-o'qituvchi O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida tajriba almashgan bo'lsa, yurtimizdan 100 dan ziyod professor-o'qituvchi va tadqiqotchi Tojikistonning hamkor universitetlarida ilmiy hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

2020-2021-o'quv yilida tojik tilidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul parametrlari ikki barobar oshirilgan bo'lsa, 2023-2024-o'quv yilida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tojikistonlik 550 dan ortiq, Tojikiston oliy o'quv yurtlarida esa o'zbekistonlik 3 mingdan ziyod talaba tahsil olmoqda.

Dushanbeda 2023-yil o'tkazilgan rektorlar forumida qo'shma ta'lim dasturini tashkil etish va Tojikiston fuqarolari uchun O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida

2018-yil 9-mart kuni Prezidentimizning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida ikki davlat hukumatlari o'rtasida oliy ta'lim va ilm-fan sohasida hamkorlik to'g'risida bitim, 30 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi o'rtasida hamkorlik bo'yicha shartnoma va memorandumlar imzolandi.

ta'lim olishga grantlar ajratildi, universitet xodimlari uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etildi.

O'zbekiston Prezidentining Tojikistonga davlat tashrifi arafasida O'zbekiston va Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlarining ikkinchi forumi o'tkazildi. "2030-yil: O'zbekiston va Tojikistonda oliy ta'lim va ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi navbatdagi anjumanda ikki tomondan 100 ga yaqin oliy ta'lim muassasasi rahbarlari, vazirlar va idoralar mas'ullari qatnashdi.

Bu galgi forumdan ko'zlangan asosiy maqsad inson kapitalini, yuqori intellektual salohiyatini rivojlantirish, nazariy-amaliy shakllantirish, kasbiy mahoratni oshirish va ikki davlat hududidagi ulkan tabiiy resurslarni ilmiy-institutsional boshqarishga qodir kadrlarni tayyorlashni rag'batlantirishdan iborat bo'ldi.

Anjumana yalpi majlisi va uchta seksiya ishida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, yangi ta'lim texnologiyalarini mintaqadagi OTMlarga keng joriy qilish bo'yicha tajriba almashildi. Shuningdek, ikki davlat talabalari o'rtasida ilmiy olimpiadalar o'tkazish, akademik almashinuvlar sonini ko'paytirish masalalari muhokama qilindi.

Forum doirasida ikki davlat universitetlari o'rtasida 55 ta shartnoma, bitim va memorandum imzolandi. Bunda qo'shma fakultet tashkil qilish, dasturlar asosida kadrlar tayyorlash, universitetlararo akademik almashinuv, ilmiy-pedagogik malaka oshirish, hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar o'tkazish, maqolalar chop etishga kelishib olindi. Yakunda O'zbekiston va Tojikiston universitetlari rektorlarining navbatdagi forumi 2025-yilda Tojikistonda o'tkazilishi reja qilindi.

An'anaviy tarzda o'tkazilayotgan O'zbekiston — Tojikiston oliy ta'lim muassasalari rektorlari forumi ikki davlat oliy ta'lim va ilm-fan sohalaridagi hamkorlik aloqalarini har tomonlama kengaytirish va yangi bosqichga olib chiqishiga ishonamiz.

Ta'lim taraqqiyoti

## O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATI sharqona hikmatga asoslangan ustoz-shogirdlik an'analariga ega



**Shuhrat TOXTASIMOV,**  
O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor

Taraqqiyot sari dadil odimlayotgan har bir davlat milliy urf-odatlari, qadimiy an'ana, betakror qadriyatlarini o'rganishga va asrab-avaylashga intiladi. Bu borada milliy raqs san'atining o'rni va ahamiyati beqiyos. Ko'p asrlik boy an'analarga ega o'zbek milliy raqs san'ati o'zining milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan chuqur mazmundorligi, harakat va holatlarning nafisligi, nozikligi, ichki kechinmalar hamda go'zal his-tuyg'ularga boyligi, sharqona fazilatlar zamirida yuzaga kelganiga bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning "Milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari o'zbek milliy raqs va musiqa san'ati uchun butunlay yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qarorlar asosida Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi hamda xoreografiya maktabi negizida Respublika xoreografiya ixtisoslashtirilgan maktab-internati tashkil etildi. Buxoro, Qarshi, Namangan va Urganch shaharlarida akademiya huzurida

Mamlakatimizda zamon talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh, yetuk mutaxassislar tayyorlash jarayoni, eng avvalo, yoshlarning intilishi va iste'dodiga bog'liq. Yangilanayotgan O'zbekiston o'quv tizimini jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari ta'lim sohasida yuz berayotgan rivojlanish jarayoniga moslashtirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ijobiy natija bermoqda.

ixtisoslashtirilgan boshlang'ich raqs san'ati maktab-internatlari ish boshladi. O'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun akademiya yangi bino ajratilib, talabalarning ijod qilishi va qulay sharoitlarda yashashi uchun barcha imkoniyat yaratildi.

Akademiyada "Musiqiya va san'at o'quv muassasalari uchun bolalar raqslari fanidan interaktiv o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish" mavzusida 2021-2024-yillarda mo'ljallangan loyiha amalga oshirilmoqda. Uning doirasida "O'zbek bolalar raqslari, raqs liboslari va taqinchoqlari nomlarining o'zbekcha — ruscha — inglizcha — fransuzcha qisqacha izohli lug'ati", "O'zbek bolalar folklor raqslari" nomli kitob-albom, 7 ta ilmiy maqolalar to'plami, 2 ta monografiya, 200 dan ortiq ilmiy maqola e'lon qilindi, 5 ta dasturiy mahsulot yaratildi va Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligidan guvohnoma olindi.

"O'zbek bolalar folklor raqslari" o'quv qo'llanmasida birinchi marta 35 ta bolalar raqsining xoreografik tasvifi berildi. Shuningdek, Turkiya, Rossiya, Misr, Hindiston, Qozog'iston, Ozarbayjon, Indoneziya, Tailandning ilg'or mingtalikka kirgan nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi, anjumana materiallarining ilmiy to'plami nashr qilindi. Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Sirdaryo viloyatlariga ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Mazkur anjumana va ilmiy ekspeditsiyalarda talabalar ham faol ishtirok etdi. Ilmiy tadqiqotlarni, mahorat daralarini, xorijdagi o'zbek bolalar raqs markazlari bilan hamkorlikni keng ko'lmda targ'ib qilish maqsadida loyihaning rasmiy veb-sayti hamda telegram kanali yaratildi. Loyiha rahbari, filologiya fanlari doktori H.Hamroyevning "O'zbek bolalar folklor raqs san'ati: an'anaviylik va zamonaviylik" nomli monografiyasi Indoneziyada indonez va ingliz, Hindistonda hind va ingliz tillarida chop etildi.

O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etilganining birinchi kunlaridanoq xoreografiya san'ati sohasida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu boradagi xalqaro tajribani

o'zlashtirish, innovatsion uslublarni joriy etish, o'qituvchilar malakasi zamonaviy talabalar asosida oshirish uchun Moskva davlat xoreografiya akademiyasi, Sankt-Peterburg Rus balet akademiyasi, shuningdek, Ostona'dagi Qozog'iston milliy xoreografiya akademiyasi, Xitoydagi Pekin xoreografiya akademiyasi bilan ilmiy, madaniy-ma'rifiy aloqalar mustahkamlanib bormoqda.

Markaziy Osiyodagi eng yaqin hamkorimiz Qozog'istondagi Jumabek Tashenev nomidagi universitetdir. O'tgan yili mazkur universitet bilan birga uchta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, ikkita xalqaro ilmiy seminar, ikkita olimpiada, o'ndan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Xususan, ikkita oliy ta'lim muassasasi tashabbusi bilan Chimkent shahrida "Ilm-fan, ta'lim va san'at integratsiyasi: istiqbolli rejalar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi va O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova nomidagi xalqaro raqs ko'rik-talari o'tkazildi.

So'nggi besh yilda akademiyaning yigirmadan ortiq yosh o'qituvchisi Moskva davlat xoreografiya akademiyasida malaka oshirib, nazariy bilim va amaliy tajribasini boyitib keldi. OTMning iqtidorli talabalari ham milliy raqs san'atini xorijiy mamlakatlarda katta muvaffaqiyat bilan namoyish etmoqda. Jumladan, ular Moskva, Sankt-Peterburg, Sochi, Astraxan, Ufa, Ostona, Olmota, Dushanbe, Chimkent kabi shaharlarda o'tkazilgan nufuzli xalqaro festival va ko'riktanlovlarda sovrinni o'rnlarni qo'lga kiritdi. Talabalarimiz Tohirjon Abbasov, Sergey Kazin Qozog'istonda o'tkazilgan Xalqaro raqslar tanlovida oliy o'rinni egalladi. 4-kurs talabasi Elchin Yusupov 2023/2024-o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga, 3-kurs talabasi Ruxshona Rasulova Islom Karimov nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo'ldi.

Bugungi murakkab davrda ta'lim-tarbiya jarayonini optimallashtirish, uning samarasini yanada oshirishda sharqona hikmatga asoslangan ustoz-shogirdlik an'analari, bilim berish va ilmiy tadqiqot ishlarini uyg'unlashtirish alohida ahamiyatga ega. Mana shu jarayonda oliy ta'lim muassasamiz jamoasi ham ishtirok etayotgani, qadriyatlarimizni asrab-avaylashga hissa qo'shayotgani qalblimizni ifxorga to'ldiradi.

## Yon qo'shni – jon qo'shni



# Bir rubobning ikki tori

## Tojikistonda O'zbekiston madaniyati kunlari boshlandi

**Azaliy do'stlik o'zbek va tojik xalqlari ildizini tutashdirib, bir-biriga quda-anda, yaqin birodar etgan. Ularning ikki tilda gaplashadigan bir xalqqa mengalishi ham shundan. Ma'lumotlarga qaraganda, Tojikistonda taxminan 1 milliondan ko'proq etnik o'zbek, O'zbekistonda 1,5 milliondan ziyod etnik tojik istiqomat qiladi. Shu bois, ikki davlatning eshiklari bir-biriga hamisha ochiq. Ayniqsa, madaniyat va san'at sohasidagi mushtaraklik bu boradagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarayotgani bilan ahamiyatli.**


Ayni kunlarda Tojikiston bo'ylab galdagi O'zbekiston madaniyati kunlari bo'lib o'tyapti. Aloqalarni yanada kengaytirishdan tashqari mazkur tadbir bugungi rivojlanib borayotgan dunyoda tendensiyalarni o'rganish, fikr va tajriba almashishdek ezuq maqsadlarni ham ko'zda tutadi. Madaniyat kunlari doirasida tanliq san'atkorlar va yosh ijodkorlarning qo'shma do'stlik konsertini tashkil etish tobora an'anaga aylanib borayotgani quvonarli. Bu tadbirlar 2018 va 2021-yillarda ham o'tkazilgan. Joriy konsert dasturida ikki davlatning milliy va zamonaviy musiqa san'ati namunalari, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlik rishtalari tarannum etiladi. Buning uchun O'zbekistondan 200 dan ortiq vakil jalb qilingan.

— "Abadiy do'stlik" deb nomlangan konsert dasturi tarixiy an'analarimizni birlashtiradi. Dastur davomida tariximiz, hozirgi kunimiz va kelajagimiz aks etadi. O'yalmizki, mehnatimiz besamar ketmaydi, chiqishlarimiz barchaga manzur bo'ladi, — deydi O'zbekiston madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Bahodir Ahmedov.

O'zbekiston turizm salohiyati, gastronomik va amaliy san'ati ko'rgazmasi esa mamlakatimizning turizm imkoniyatlarini namoyish qiladi. Uning doirasida yurtimizda soha infratuzilmasining rivojlanish dinamikasi, hunarmandlik buyumlari taqdim etiladi. Ayni maqsadda 10 ga yaqin hamyurtimiz Tojikistonda bo'lib turibdi. Respublikamizda

ko'zga ko'ringan yog'och o'ymakor, miskar, miniatyurachi, kashrado'z hunarmandlar milliy amaliy san'atimiz namunalari namoyish etayotgan bo'lsa, oshpazlarimiz milliy taomlarimiz nomini yanada ulug'lashga xizmat qilyapti.

— Tojik birodarlarimiz bizni iliq qarshi olib, ko'rgazmani ko'ngildagidek tashkil etishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berdi, — deydi hunarmand Alisher Ubaydullayev. — O'zbekiston madaniyat kunlari doirasida bu yerga kelgan ekanimiz, yurtimizning turizm salohiyatini oshirishda milliy hunarmandlikning o'rni beqiyos ekanini ko'rsata olishimiz kerak, albatta. Shuning uchun ko'rgazmaga eng sara qo'l ishlarimizdan namunalar olib keldik. Milliy



mahsulotlarimizga qiziqish katta ekani bizga ko'tarinkilik berish barobarida yangi-yangi g'oyalarga ham ilhomlantiryapti. Nasib qilsa, tojikistonlik hunarmandlar bilan o'zaro tajriba almashib, mustahkam do'stlik aloqalarini yo'lga qo'yamiz.

Kinematografiya agentligi axborot xizmati xabar berishicha, 15-20-aprel kunlari o'zbek kinosi kunlari o'tkazilishi belgilangan. Tadbirning ochilish marosimi esa Dushanbe shahridagi "Kohi Navro'z" saroyida bo'lib o'tdi.

Kino kunlari doirasida Kinematografiya agentligi buyurtmasiga binoan suratga olingan "Abdulla Oripov", "Evrilish", "Yasha, xotin", "Sudya" filmlari tojik kinoixlosmandlari e'tiboriga havola etiladi. O'zbek kinoijodkorlaridan iborat

delegatsiya, shuningdek, "Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy" badiiy filmi bo'yicha tojikistonlik hamkasblari bilan uchrashib, kinoloyiha senariysi yuzasidan muzokaralar o'tkaziyapti.

— Madaniyat kunlari doirasidagi tadbirlarda "Yulduzlar shu'lasi: Jomiy va Navoiy" badiiy filmi senariysi muhokamasi uchun O'zbekistondan bir guruh navoiyshunos olimlar taklif etilganidan juda mamnunmiz. Senariy muhokamasida tojikistonlik hamkorlarning munosib hissasi bor. Zero, ikki tomonning o'zaro kelishuvi asosida senariyning tarkibi, mazmuni, ko'rinishi rejissyorlar bilan birgalikda ko'rib chiqilyapti. Olimlar tarixiy haqiqatlarni aytishi, fikrlarini berib turishini muvaffaqiyatni ta'minlovchi



jarayon deb baholaymiz, — deydi filologiya fanlari doktori Aftondil Erkinov.

Shuningdek, tadbirlar doirasida o'zbekistonlik kinorejissyor va aktyorlarning mahorat darslari va ijodiy uchrashuvlari, ikki davlat kino sohasiga ixtisoslashgan muassasa rahbarlari uchrashuvlari ko'zda tutilgan. Mazkur tadbirlarda o'zbekistonlik 10 dan ortiq kino sohasi vakili ishtirok etyapti.

Delegatsiyamiz tashrifida O'zbekiston teatrlarining Tojikistonga gastrol safarlarini tashkil etish ham rejalashtirilgan. Zero, bu orqali ikki davlat o'rtasida teat yo'nalishi bo'yicha ham do'stlik aloqalarini rivojlantirish ko'zda tutilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston delegatsiyasining har bir vakilida millatlararo do'stlikka tayangan holda yurt sharafini ulug'lash, milliy madaniyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shish ishtiyoqi bor. Shu ma'noda Tojikistonda o'tkazilayotgan bu yilgi O'zbekiston madaniyati kunlari har ikki davlat uchun ham manfaatli va xayrli bo'ladi.

**Munajat MO'MINOVA,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

## Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik

**Qutb Xorazmiy Nizomiy Ganjaviyning "Xisrav va Shirin" dostonini eski o'zbek tiliga o'girib, tarjima qilish g'oyasini "Ko'ngil farmoni" deb qabul qiladi. U o'z ishi bilan faxrlanib, "Hazontak qaynab ul savdo pishurdim, Nizomiy bolidin halvo pishurdim", deb yozadi. Tarjima san'ati 1340-yildayoq shunday ta'riflangan ekan. Bugun-chi... ayni zamon tarjimachilik maktabining asosiy mezonlarini qanday baholash mumkin? Turkiyalik tarjimon Hamza O'ZTURKCHI bilan suhbatimizni shunday savol bilan boshladik.**

tashkil qilmoqchiman. Bu idora atrofida turk dunyosi mutarjimarini yig'amiz. Badiiy asarlar tarjimasiga o'zgacha tayyorgarlik va salohiyat bilan kirishamiz. Bunga kuchimiz yetadi, albatta.

— Keyingi yillarda sizning "ijod laboratoriyangiz" ko'proq o'zbek adabiyotiga oshno tarzda nom qozonmoqda. Dastlab Cho'lon ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishingiz haqida eshitgan edik. So'ng, 2021-yilda "Hozirgi o'zbek hikoyalari" kitobini turk o'quvchilariga taqdim etdingiz. 2022-yilda esa Muhammad Yusuf she'rilarining tarjimoni sifatida taniladingiz. Bu jarayonda hozirgi

Ayni hikoyalarda klassik, modern, postmodern, sehrlilik realizm oqimida yozilgan asarlar mavjud. Tarjima qilar ekanman, mualliflar bilan adabiy taftish ham olib bordik. Masalan, tarjima turkchada ma'nosiz bo'lib qoladigan jumlamani turk tilidagi mos tushadigan boshqa muqobil jumlagacha, iboraga o'zgartirdik.

Albatta, hozir yo'lining boshidaman. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha o'rganadiganlarim hali ko'p. Tarjima xususida ham rejalarni bisyor. Milliy uyg'onish davri yozuvchilarining romanlaridan birini o'zbek tiliga tarjima qilish orzum bor. Shu davr namoyandalaridan bo'lgan iste'dodli tarjimon Akshit Go'ktug'ning "Tarjimadagi umumiy adabiy til — tillarning tili" asarini o'zbek kitobxonlariga O'zbekiston mustaqilligining o'ttiz

Hozir Turkiyada G'arb romanlari tez fursatda sotib olinyapti, ammo turk dunyosidan tarjima qilingan, juda oz nusxadagi roman ancha vaqt sotilmay turib qolyapti. Shu bois, turk dunyosi tarjimonlarining zimmasiga juda og'ir vazifa qo'yilgan. Biroq asarlar tarjima qilingani sayin tarjima ham o'tavereydi, vaziyat ham yaxshilanib boraveradi.

Shu o'rinda bir gap aytmoqchiman. O'zbek adabiyotida sehrlilik realizm namunalari ham yozilayotgani meni mamnun etdi. Xususan, Nazar Eshonqul asarlarida shuni ko'ramiz. Yosh ijodkorlar orasida ham sehrlilik realizm namunalari yaratayotgan yozuvchilar bor. "Hozirgi o'zbek hikoyalari" jamlanmasiga bir necha shunday asarlarni kiritdik.

— Yaqinda O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romani tarjimasini yakunlaganingiz haqida eshitdik. Hamisha qarama-qarshi fikrlar va turli ilmiy

ruxsat oldim. Isajon Sulton turkiy tillarni yaxshi biladi. Shu sababli uning tanlagan so'zlari umuman turk tili yoki Turkiyada qo'lingan so'zlardan iborat bo'ladi. Haqiqatan tarjima jarayoni qiyin kechdi. Tarixiy romanni o'qirish hech qachon oson bo'lmaydi. Qolaversa, Isajon Sultonning falsafiy qarashlari juda kuchli. Rostini aytсам, asarda Abu

## Hamza O'ZTURKCHI:

### "ABU RAYHON BERUNIY" —

## TURKIYLAR KO'PDAN BUYON KUTGAN NOYOB ASAR

— Dunyo tarixiga nazar tashlasak, tarjimonlar hamisha muhim vazifalarni bajargan. Mazkur vazifalar shunday salmoqli ediki, tarix sahifalariga jiddiy o'zgartirishlar kiritgan. Ayniqsa, bu jarayon islom ulamolari faoliyatida katta o'rin tutgan. Ular azaldan tarjima so'zma-so'z amalga oshirmagan. Asosan so'zning, jumlaning ma'nosini yetkazib berishga, bu ma'noni teran anglatishga harakat qilgan. Hatto tarjimada o'z talqinlarini ham qo'shib ketgan. Shu sabab ilm-ma'rifat o'chog'i, deya Sharqni tan olishadi. Falsafa, til, adabiyot, tarix va madaniyat bilan bog'liq o'nlab asarlar muallifi, usta mutarjim Husayn Jamil Merichning "Nur Sharqdan taraladi" degan asari ham bor. U yana tarjimachilik bilan bog'liq mana bu ta'rifi ham keltirgan: "Tarjimon komillikni qidirgan kelba, "falsafa toshi"ni topishga bel bog'lagan kimyogardir". Taniqli sotsiologlardan yana biri Hilmi Ziyov Ulkan ham "sivilizatsiyalarning uyg'onishi tarjima bilan boshlangan"ni ko'p ta'kidlaydi.

Tarjima ikki ruhiy, ma'naviy dunyo birlashtiradi. Hozir turkiy tillar orasidagi tarjimachilik faoliyati haliyam maktab hisoblanmaydi. Albatta, ayni paytda tarjimalar ko'payib ketdi. Ammo bu jarayonda muammolar ham ortib bormoqda. Hozirgi turk adabiyotida G'arb adabiyotidan o'g'irilgan asarlarda kamchilik deyarli ko'zga tashlanmaydi. Lekin turkcha o'zbekcha yoki o'zbekcha-turkcha tarjimalarda uchrayotgan kamchilik va e'tiborsizliklar bezovta qiladi kishini. 2010-yilda Otaturk universiteti adabiyot fakulteti hozirgi turk tili va adabiyoti bo'limida ish boshlaganida birinchi marra o'zbek romanlari bilan tanishdim. Afsuski, dastlab ushbu romanlarning turkcha tarjimasini biz, talabalarga kutilgan badiiy za'vq va taassurot bermagan. Keyingi yillarda domlamiz Husayn Baydemirning



xonasida o'zbek romanlarini qayta o'qidiq va ular qanchalik qimmatli asarlar ekaniga guvoh bo'ldik. Bu asarlar orasida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" va tarjima qilingan boshqa romanlarning asl namunalari mavjud edi. Turkiy tillar orasida tarjima faoliyati kerakli darajada bo'lmaganing boshqa sabablari ham bor. Avvalo, turkiy xalqlar adabiyotidagi o'zaro aloqa G'arb adabiyotidagi kabi rivojlanmagan. Qolaversa, turk dunyosi adabiyotida tarjimonlar yetishmaydi. So'nggi yillarda turk-o'zbek adabiy aloqalari kengayishi mutarjimlik faoliyatining ham rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi, deb aytalimiz. Lekin bu sa'y-harakatlar yetarli emas. Biz Turkiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi "oltin davr"ga yaxshi tayyorlanmadik. Tarjima asarlar kun sayin ko'payib borayotgani rost, biroq yaxshi tarjimalar nihoyatda kam uchraydi. Mening bitta niyatim bor. Tarjima idorasi

o'zbek nasri va nazmidagi qanday o'ziga xos ijodiy to'lqinlar, yangilanishlardan ko'ngingiz to'ldi?

— 2010-yilda Otaturk universitetining adabiyot fakultetida ustozim Husayn Baydemir menga o'zbek tili va adabiyotidan saboq berdi. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lon to'g'risida birinchi marra shu yerda eshitganman. Bir kuni ustozim darsda Cho'loning "Go'zal" she'rini o'zbek tilida o'qib berdi va hamma gap tarjimada ekanini yanada chuqurroq angladim. Chunki o'zbek tilidagi "Go'zal" turkchadagi "Go'zal" dan ko'ra, ancha go'zal edi. Ha, o'zbek tiliga men Cho'lon tufayli oshiq bo'lib qoldim, desam xato bo'lmaydi. O'shandayoq o'zbek jadid shoirining shirali ijod tili meni maftun etdi. Shu kuniyoq dissertatsiyam mavzum Cho'loniga bag'ishlanishini niyat qildim. Xudo menga shu kunlarni nasib etgan ekan, chindan ham yillar o'tib, magistraturada Cho'lon haqida ilmiy ish yozdim.

Siz aytganingizdek, o'tgan to'rt yilda o'zbek tildan turk tiliga bir qator adabiy tarjimalar qildim. Dastlab maqola va hikoyalari o'g'irdim. Ular Turkiyadagi taniqli adabiy jurnallarda nashr etildi. Keyin Cho'loning "Yorqino'y" pyesasini ona tilimga o'g'irdim va shu asosida tahliili risola yozib, 2019-yilda e'lon qildim.

"Hozirgi o'zbek hikoyalari" nomli kitobdan bugungi o'zbek nosiralarining 30 ta hikoyasi o'rin olgan. Xususan, O'tkir Hoshimov, Erkin A'zam, Nurali Qobul, Xurshid Davron, Xayriddin Sulton, Nazar Eshonqul, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabi ustoz ijodkorlar hamda yosh nosiralaridan Jasur Kengboyev, Asliddin Mustafa, Javlon Jovliyev, Ma'ruf Mengli, Gulnoz Mamarasulova va boshqalar bor. Ushbu to'plam bilan o'zbek hikoyasining adabiy suratini turk tilida namoyon etishga harakat qildim.



uch yilligiga sovg'a qilish niyatidaman. Shu bilan birga, yangi adabiyot namunalari tarjimalari bilan ham shug'ullanmoqchiman. O'zim ham hikoya va she'rlar yo'zaman. Yil mobaynida noshir do'stlarim bilan o'z hikoyalari to'plamini Turkiyada va O'zbekistonda chop etishni rejalashtirganmiz.

2022-yilda TURKSOY tomonidan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'rilarini turkchaga tarjima qilish taklifi bo'ldi. She'r tarjima qilish men uchun og'ir, chunki she'rni tushunib o'g'irish juda qiyin ish. Fransiyalik shoir Jean Cocteauning she'r tarjimasida haqiqat mana bu so'zini doim esimda tutaman: "She'r boshqa tilga tarjima qilinmaydi, o'z tiliga ham..." Lekin Muhammad Yusufning tili shunchalik toza va samimiy ediki, tarjimasida aslo qiynalmadim.

**mulohazalar to'fonida yashab, ilmiy asarlar yaratgan bu alla-ma haqidagi roman tarjimasini oson kechmagani aniq. Mutafakkir haqidagi roman qaysi jihatlar bilan sizni tarjima qilishga undadi?**

— Isajon Sultonni postmodern yozuvchi, deb hisoblayman. Uni "Hozirgi o'zbek hikoyalari"ni tayyorlash jarayonida tanidim. Keyinchalik barcha asarlari bilan tanishib chiqdim, bildimki, undagi falsafiy qarashlar va mahorat o'ziga xos va noyobdir. Dastlab "Bilga Xoqon" romanini tarjima qilmoqchi edim. Buni menga "Hese" nashriyoti taklif qilgan edi. O'shanda hatto tarjimasiga ham kirishgan edim. Lekin bir do'stimiz u roman haqida magistraturada izlanish olib borayotganini eshitib, tarjimani to'xtatdim. Bir yildan keyin Turk tili jamiyati tomonidan "Bilga Xoqon" romani mukofotlandi.

Oradan bir muddat o'tib "Ketebe" nashriyoti adabiyot festivalida menga Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romani tarjimasini taklif qildi. Albatta, tarjima uchun yozuvchining o'zidan



Rayhon Beruniy va o'sha zamon ziyolilari bilan suhbatlar, dialoglar meni anchagina cho'chitdi. Ana shunday kezlarda men Isajon Sultonidan maslahat so'radim. Yozuvchi menga juda katta yordam berdi. Nihoyat, hamkorlikdagi ishimizni tugatdik.

Tarjima kirishishimning yana bir sababi turk adabiyotida biografik romanlar kamligidir. O'zim maktabda ham dars beraman. Turk-islom allomalari, xususan, Beruniy haqida o'quvchi va talabalarga tavsiya qiladigan asarlarni ko'pincha topolmaymiz. Bu tarjimga shu sababdan universitet va maktablarning ham ehtiyoji katta. Tarjima jarayonida shuni bildimki, "Abu Rayhon Beruniy" biz turkiylar ko'pdan buyon kutgan noyob asardir.

Shu sababli "Abu Rayhon Beruniy" romani — Turkiyaning eng yaxshi nashriyotlaridan biri "Ketebe"da chop etildi. Hikoyalari va roman tarjimasida Isajon Sultonning uslubiga sodiq qolishga harakat qildim. Kitob yaxshi nashriyotda chop etilishi uchun navbat kutdik. Boshqa bir nashriyotda chiqarish uchun imkonimiz bor edi. Biroq bir "Ketebe" nashriyotini tavsiya qildik va roman haqida hisobot yozdik. Chunki nashriyotda o'zbekcha biladigan odam yo'q. Roman tahliili yozilgandan keyin qabul qilindi va yana bir yil kutdik. Endi "Abu Rayhon Beruniy" romani Turkiyada kitob do'konlarida sotiladi. Hali tarjima qilinishi zarur bo'lgan asarlar talaygina.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1239. 44543 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Xayriddinmurod Abulfayzov  
Musahhirlar: Sherzod Mahmudov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 21:48 Topshirildi — 00:15